

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKUL‘TETI
O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

“404” guruhi talabasi

TO‘XTASINOV NURILLO

“O‘rta asrlarda Qo‘qon shahri tarixi”

5120300–Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha) ta‘lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: A.A.Xakimov.

Andijon 2018

MUNDARIJA

Kirish.....	3-7
1.Bob. Qo‘qon toponomikasiga doir ma’lumotlar.....	8-17
2.Bob. Shaharning Qo‘qon xonligi davridagi ijtimoiy siyosiy mavqei.....	18-33
3.Bob. Qo‘qon xonligi davrida shaharda madaniy hayot, ilm-fan taraqqiyoti.....	34-49
Xulosa.....	49-50
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	51-54
Ilovalar.....	54-58

Kirish

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Milliy mustaqilligini qoʻlga kiritgan Oʻzbekiston yangi yoʻldan taraqqiy eta boshladi. Mustaqillikka erishganidan soʻng Oʻzbekiston oʻtgan yigirma etti yil ichida oʻta mashaqqatli va sharaflı yoʻlnı bosib oʻtdı. Buni oldindan yaxshi bilgan Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda “Oʻz istıqlol va taraqqiyot yoʻlimiz – bu gul bilan qoplangan yoʻl emas, bu totalitarizm merosidan xalos boʻlish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarnı bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yoʻlidir”, deb aytgan soʻzlari zahirida qanchalik chuqur hayotiy maʼno borligini yana bir bor anglaymiz¹.

Shu bilan birga, istıqlol Oʻzbekiston xalqiga maʼnaviy uygʻonish, oʻzlikni anglash, boy tarixiy oʻtmishini oʻrganishga imkon yaratib berdi. Mustaqillik tufayli oʻzbek xalqining koʻp asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va maʼnaviy merosini oʻrganish, undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yoʻl ochildi. Maʼnaviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazınasi va taraqqiyot manbai hisoblanadi. Aynan ushbu maʼnaviy va mafkuraviy asosni mustahkamlash hamda rivojlantirishda tarix fani alohida ahamiyatga egadir. Zero, Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov taʼkidlaganidek “...tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasorati tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda”². Birinchi Prezident tarixiy xotira toʻgʻrisida fikrini davom ettirar ekan – “Tarixiy xotira tuygʻusi toʻlaqonli ravishda tiklangan, xalq bosib oʻtgan yoʻl oʻzining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yoʻqotish va qurbonlari, quvonch va ıztiroblari bilan xolis va haqqoniy oʻrganilgan taqdirdagina chinakam tarix boʻladi,”³ – deya haqli ravishda qayd etgan.

¹ Karimov I. A. Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2011. – B. 27.

² Karimov I. A. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6 – жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 127.

³ Karimov I. A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Maʼnaviyat, 2008. – B. 97.

O'zbekiston hududi shaharlarga boy hisoblanadi. Yurtimizda Toshkent, Qo'qon, Samarqand, Namangan, Andijon, Buxoro, Xiva, Urganch, Termiz, Qarshi, Jizzax kabi qadimiy shaharlar bilan bir qatorda, Navoiy, Zarafshon, Olmaliq, Sirdaryo, Guliston, Quvasoy, Nukus, Angren, Oxangaron va boshqa ko'plab yosh shaharlar ham mavjud. Bu shaharlar nomlarining o'ziyiq bir tarix xisoblanadi. O'zbekiston shaharlari aksariyatining nomlanishi xaqida turli xil ma'lumotlar mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Qo'qon shahrini o'rta asrlardagi tarixini o'rganish va tahlil qilib, xulosa chiqarish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilishi darajasi o'rta asrlar davrida Qo'qon shahrigining toponomik, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy ahvoli masalasi alohida tadqiqot ob'yekti sifatida hozirga qadar o'rganilmagan bo'lsada, XVIII asr boshlaridan – XIX asr 70 – yillarigacha xonlikda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar ayrim tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan. Jumladan, Qo'qon xonligi shaharlari davri tarixi yoritilgan ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga oid tadqiqotlar.
2. Sovet davri adabiyotlari.
3. Mustaqillik davrida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar.

Birinchi guruhga mansub adabiyotlarning mualliflari asosan rossiyalik olimlar, harbiylar, sayyoh va elchilar hisoblanib, ular XIX asr o'rtalaridan boshlab O'rta Osiyo, xususan, Qo'qon xonligini atroflicha o'rganishga harakat qilganlar. Ularning asarlarida asosiy e'tibor Rossiya bosqini arafasidagi Qo'qon xonligining umumiy tavsifiga qaratilgan. Jumladan, ularda xonlikdagi shaharlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, mamlakatdagi yirik shaharlar, ularning ahaolisi soni, milliy tarkibi, bozor va karvonsaroylariga oid ayrim qimmatli ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Birinchi guruhga mansub adabiyotlarning mualliflari jumlasiga P.I.Nebol'sin, V.V.Grigor'yev, Ch.Ch.Valixanov, A.Kun, A.P.Xoroshxin, L.Kostenko, M.A.Terent'yev va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Qo'qon xonligi davri tarixiga doir **ikkinchi guruh** adabiyotlarini sovet davrida yaratilgan asar va tadqiqotlar tashkil qiladi. Bu davrda Qo'qon xonligi davri tarixining turli masalalariga oid tadqiqotlar olib borgan olimlar jumlasiga A.P.Qayumov, A.L.Troiskaya, R.N.Nabiyev, H.Z.Ziyoyev, H.N.Bobobekov, S.X. Ishanxanov, T.K. Beysembiyev, Sh.H.Vohidov kabilarning asar va tadqiqotlarini kiritish mumkin⁴.

Qo'qon xonligi shaharlarining tarixiga doir adabiyotlarning **uchinchi guruhini** iqtisodiy davrida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixining turli davrlari, xususan, xonliklar davri tarixi, shahar-davlatlar tarixi ham yangicha qarash va yondashuvlar asosida o'rganila boshlandi. O'zbekiston hududida qadimdan beri shakllanib va rivojlanib kelgan milliy davlatchilikning ajralmas qismi bo'lgan Qo'qon xonligi davri tarixi, unda kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarning ayrim jihatlariga bag'ishlangan turli asarlar, tadqiqotlar va maqolalar chop etildi. Ularda Qo'qon shaxri tarixining siyosiy, madaniy hayoti va xonlik xalqlarining Rossiya tajovuzi hamda hukmronligiga qarshi kurashi, Qo'qon xonligi shaharlaridagi xalq harakatlari, ularning ijtimoiy-siyosiy asoslari, turli tarixiy shaxslarning mamlakat siyosiy hayotida tutgan o'rni, xonlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ba'zi masalalari, ma'muriy-boshqaruv tizimining ayrim muammolari, xonlikning Sharqiy Turkiston bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari davri manbashunosligi masalalari ko'tarilgan va o'zining ilmiy talqinini topgan. Bunday tadqiqotlar jumlasiga H.N. Bobobekov, H.Z.Ziyoyev, Sh.H.Vohidov,

⁴ Каюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент, 1961. – 563 б.; Троицкая А. Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – Москва: Наука, 1968. – 582 с.; О'sha muallif. Материалы по истории Кокандского ханства XIX в. – Москва: Наука, 1969. – 154 с.; Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худояр-хана). – Тошкент: Фан, 1973. – 476 с.; Зиёев Ҳ. 3. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI – XIX асрлар). – Тошкент, 1962. – 88 б.; О'sha muallif. Ўрта Осиё ва Волга бўйлари (XVI – XIX асрлар). – Тошкент, 1965. – 237 б.; Бабабеков Х. Н. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки (XVIII – XIX вв.). – Тошкент: Фан, 1990. – 118 с.; Бейсембиев Т. К. “Тарихи Шахрухи” – как исторический источник. – Алма-Ата: Наука, 1987. – 198 с.

G.A.Agzamova, D.Sangirova, V.Ishquvvatov, Z.A.Ilhomov, B.Ya.Tursunov, O'.A.Sultonov, Sh.Yu.Mahmudov, Z.Sh.Madrahimov, Sh.T.Qo'ldoshev, B.M.Babadjanov, M.O.Alixojiyev kabilarning asar, dissertatsiya va maqolalarini kiritish mumkin⁵.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. O'rta asrlar davrida Qo'qon shahri tarixi mavzusi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari quydagilardan iborat:

- birinchidan, Qo'qon toponomikasiga doir ma'lumotlarni o'rganish va qiyosiy taqqoslash;
- ikkinchidan, Qo'qon shaxri tarixini manbalarda yoritilishi va uni o'rganish, ilmiy taxlil qilish
- uchunchidan, o'rta asrlar davrida shaxarni mavqeini ortishi xonlik poytaxtiga aylanishini o'rganish va ilmiy tahlil qilish;
- to'rtinchidan, shaharning Qo'qon xonligi xukmdorlari davrini o'rganish va bir-biri bilan solishtirish;
- beshinchidan, shaharning Qo'qon xonligi davridagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy ahvolini o'rganish va tahlil qilish;

⁵ Бобобеков Х. Н. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – 238 б.; О'ша muallif. Қўқон хонлиги тарихининг долзарб муаммолари // “Ўзбек давлатчилиги тарихида Фарғона водийси”. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Фарғона, 2004. – Б. 29 – 35; О'ша muallif. История Коканда. – Тошкент: Фан, 2006. – 244 б.; Зиёев Х. З. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 480 б.; О'ша muallif. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 288 б.; Воҳидов Ш. Х. Қўқон хонлигидаги унвон ва мансаблар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1995. – №3 – 4. – Б. 214 – 223; Воҳидов Ш., Сангирова Д. Шоҳ ва шоир Мадалихон. // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1998. – №5. – Б. 24-25. Турсунов Б. Я. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, аънаналари (XIX асрнинг 70 – йилларигача): Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА Тарих институти, 2006. – 154 в; Маҳмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий бошқарув тизими (1709 – 1876 й. й.): Тарих фан. номз. дисс... – Т.: ЎзР ФА Тарих институти, 2007. – 160 в.; Қўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар (XVIII - XIX асрнинг биринчи ярми): Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА Тарих институти, 2009. – 154 в; Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари: Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2009. – 159 в., О'ша muallif. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи: – Т.: Yangi nashr, 2014. – 174 б.; Бабаджанов Б. М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. – Токио-Тошкент: Янги нашр, 2010. – 742 б.; Алихожиев М. Қўқон хонлигининг маданий ҳаётида мактаб ва мадрасаларнинг тутган ўрни: Тарих фан. номз... дисс. афтореф. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2012. – 27 в.

Bitiruv malakaviy ishi ob'yekti. O'rta asrlar davrida Qo'qon shaxrining toponomikasi, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy ahvoli o'rganish mavzuning ob'yektini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Mavzuni yoritish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o'rganish, xolislik va tarixiylik tamoyillariga asosiy e'tibor qaratishga oid g'oyalari nazariy asos vazifasini bajardi. Bitiruv malakaviy ishi jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning kontseptual nuqtai-nazaridan idrok etishga, tarixiy voqealar xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi zamon tarix fani talablari kontekstida ochib berishga asosiy e'tibor qaratildi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishidan Tarix yo'nalishi talabalari uchun "O'zbekiston tarixi", "Qoqon xonligi tarixi" "O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar davri shaharlari tarixi" fanlaridan ma'ruza matnlari tayyorlashda, amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining hajmi 54 betni tashkil etadi.

1. Bob. Qo‘qon toponomikasiga doir ma‘lumotlar.

Farg‘ona vodiysidagi ko‘p shaharlar qadimda mavjud bo‘lgan. Lekin ularning iqtisodiy jihatdan taraqqiy qilishi halokatli urushlar natijasida juda sekinlik bilan o‘tgan, ba‘zan to‘xtab ham qolgan. Ularni asliday qilib tiklash esa bo‘sh joylarda yangitdan shahar qurishga o‘xshab ketardi. Bunday qadimgi shaharlardan biri Qo‘qon hisoblanib, u 2000 yildan ortiqroq yoshda. 1830 yil yanvar oyida shaharga kelgan G.N.Potavin shu sababdan bunday deb yozgan edi: “Shaharda vaqt o‘tishi bilan putur yetgan, buzilgan qaqimgi yodgorliklar turibdi”.⁶

1849 yilda esa “Rus imperatorining Geografiya jamiyati axborotlari” da chop etilgan “Qo‘qon xonligining hozirgi ahvolini tahlil qilish” maqolasida bu yerda qadimda Shimoliy davlatlarning qo‘shinlari bostirib kirishi tajavuzida mahf etilgan, qirib tashlangan shahar bo‘lganligiga Qo‘qon tevarak atrofidagi harobalar guvohdir deb takidlanadi.

Shaharga qatnovchi sayyohlarning so‘zlariga qaraganda. Qo‘qon bog‘larida ko‘pining yoshi bir necha asrni tashkil etgan daraxtlar o‘smoqda edi.

Shaharning barpo etilishi haqida V.P. Nalivkin qiziqarli ma‘lumotlar keltiradi. U 1732 yilda Shohruhning o‘g‘li Abu ar-Rahim hukimdor bo‘lgach, Qo‘qon shahriga asos soldi, uning vafotidan keyin esa ukase va vorisi Abu al-Karimbiy Qo‘qonga ko‘chib kelib, uni qayta qurdi, deb eslatib o‘tadi. Faqat shu paytdan boshlab Qo‘qon o‘z nomiga ega bo‘ladi. Shu yerlik mahalliy hokimlar esa shaharga asos solish vaqtini 1153-1740 yillar deb hisoblaydilar. Bizning fikrimizcha V.P. Nalivkin hatolikka yo‘l qo‘ygan. Shaharning mavjud bo‘lishi haqida yana 1718 yilda Rossiyadan Buxoroga yuborilgan Oriental Komissiyasining kotibi Florio Benveni ham eslatib o‘tadi. Uning esdaliklaridan quyidagicha o‘qiymiz: “Butun Buxoro” o‘lkasi hozirgi va ilgargi vaqitda 23 ta shahar hisoblanardi, chunonchi, Buxoro sharqqa: Azora, Karmana, Toshkend, Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, Andijon va Qashg‘ar...”⁷

⁶ Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 1996. – Б. 6.

⁷ О‘sha joyda.

Qo'qon shahri toponomikasi xaqida ham turli xil ma'lumotlar mavjud. Xususan, qirg'iz xalqining "Manas" eposida Toshkent, Samarqand, Jizzax hamda vodiyning Qo'qon, Andijon va Namangan shaharlari hamda ularning aholisi, xo'jalikning ayrim turlari xaqida ma'lumotlar beriladi.

Shuningdek, Qo'qon shahri X asrda bitilgan "Hudud ul-olam" qo'lyozma asarida, arab geograflaridan Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida Ho'qan (Xuvoqand), Ho'qand (Xuvoqand) shakllarida qayd qilingan. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Xo'qon viloyati tilga olingan. Hozirgi Qo'qon shahri tarixiy Xo'qand o'rnida XVIII asrda boshlarida o'zbeklarning ming urug'i boshlig'i, Qo'qon xonligi asoschisi Shohruhbiy tomonidan barpo etilgan. Akademik V.V. Bar'toldning fikricha, shaharning adabiy nuqtai nazardan to'g'ri shakli Xo'qand bo'lib, Qo'qon jonli tilda talaffuz etilishidir⁸.

Qo'qon shahri xaqida ma'lumotlar XII asrga oid ma'lumotlar marokashlik sayyoh Al-Idrisiyning "Nuzxat af-mushtoq fi xtirak ul-afoq" ("Jahon bo'ylab kezib xoldan toyganning ovunchig'i") asarida ham uchraydi. XIII asrga oid bir asar sayyoh Yoqud Hamaviyning "Mu'jam al-buldon" ("Mamlakatlar ro'yxati") asaridagi Xavoqand (Qo'qon) xaqidagi ma'lumoti biz uchun muhimdir. E'tiborli tomoni shundaki, dastlabki manbalarda Qo'qon, Xavoqand, Xuvaqan, Xuvakent, Quqand kabi nomlar bilan uchraydi. O'z navbatida Qo'qon atamasining ma'nosi xaqida esa, asosan 3 xil faraz mavjud:

1. "Xuk kand" tojikcha "to'ng'iz kavlagan" ma'nosini anglatadi. Bunday qarashning paydo bo'lishiga sabab manbalarda ko'rsatilishicha shahar o'rni qamishzor bo'lib bu yerda yovvoyi cho'chqa (to'ng'iz) lar ko'p bo'lgan.

2. "Yaxshi", "latif" ma'nosini anglatadi. Chunki shahar baxavo, chiroyli joyda joylashgan.

3. "Yaxshi", "latif" shahar aholisiga nisbatan ishlatilgan bo'lib, qo'qonliklarning fe'li yaxshi bo'lgan.

⁸ Бабабеков Х. История Коканда. – Тошкент: Фан, 2006. – С. 5.

Shuningdek, Qo`qon toponimiga nisbatan, “Xavokent” – “shamollar shahri”, “Ko`pqon” – “ko`p qon to`kilgan joy”, “Qopqon” – “pistirma” va boshqa nomlar uchraydi.

Rivoyatlarga ko`ra, shaharni “Xuk kand”, ya`ni “to`ng`iz kavlagan” deb atalishining asosiy sababi, shahar barpo etilmasdan bu joylar botqoqlik bo`lgan, bu yerda ko`p to`ng`izlar yashagani uchun shunday nomlangan degan qarashlar mavjud⁹. Bu xaqida rivoyat Isoqxon Ibratning “Tarixi Farg`ona” asarida ham keltirgan¹⁰.

Qo`qon toponimining “Xo`qand” (yoqimli, latif shahar, yaxshi shahar) so`zlaridan kelib chiqqanligini isbotlovchi bir afsona bor. Shaharni qurish zarurati paydo bo`lganda tajribali ustalar – shahar quruvchi va ularning rejalarini tuzish bo`yicha mutaxassislar o`zlarining hokimiga eng qulay bo`lgan toza suvli va soy orasidagi joyni tanlab olish kerakligini maslahat qilganlar. Bu joyda ko`plab bog`lar va polizlar bor edi. Yerning o`zi esa xosildor edi. Dushmanlarni bosib olishdan shaharni tabiiy to`siq – ikkita soy himoya qilgan. Bundan tashqari bu hududda Xitoy va boshqa mamlakatlarga boruvchi karvon yo`llari tutashgan edi. Bularning hamasi shaharni Xo`qand deb atashga asos bo`ladi¹¹.

Boshqa bir rivoyatga ko`ra shahar nomi “Xavokent” (shamollar shahri) so`zidan kelib chiqqan. Chunki, shahar qurilgan paytda istiqomat qiluvchi aholi shamolning tez-tez bo`lishini, poyalar, daraxt tanalarning doimiy kuchli shamollar ta`sirida bir tomonga egilganligini ta`kidlashadi. Shuning uchun shahar “Xavokent” (shamollar shahri, tez-tez xavoni o`zgartiruvchi, iqlimni salqin qiluvchi, baxri-dilni ochadigan, sof bo`lishini ta`minlovchi ma`nosida) deb atalgan.

Boshqa bir rivoyatga ko`ra shaharning nomi “Qopqon” (ko`p qon to`kilgan joy) so`zidan kelib chiqqaligi ta`kidlanadi. Afsonaga ko`ra, uzoq o`tmishda, bu hududda shahar qurilgan paytda tez-tez urushlar bo`lib turgan. Bu urushlar natijasida ko`plab insonlar xalok bo`lgan va ko`p qon to`kilgan. Shu sababli

⁹ Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 1996. – Б. 6 – 7.

¹⁰ Исроқхон Иброт. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Мерос, 1991. – Б. 285.

¹¹ Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 1996. – Б.10 – 12.

shaharni qonli “ko`pqon” ataydilar. Keyinchalik talaffuzda “P” tushib qolib, Ko`kon, so`ngra, “K” ning “Q” ga o`zgarishi natijasida Qo`qon deb atay boshlaydilar.

Boshqa rivoyatda esa, shahar “Qopqon” (qopqon, tuzoq, pistirma) deb atalganligi ta`kidlanadi. Ilgarigi vaqtlarda ajnabiylar shaharni talon-taroj qilish va uning aholisini qulga aylantirish uchun tez-tez xujum qilganlar. Lekin ularning barcha urinishlari behuda ketgan. Bir so`z bilan aytganda bosqinchilar pistirmaga uchrab mag`lub bo`lganlar. Shuning uchu ham shaharni “Qopqon”, ya`ni tuzoq deb ataydilar. Keyinchalik “Qopqon” fonetik o`zgarishlar natijasida “Qo`qon”, “Qo`qand” bo`lgan.

Qo`qon hududlari va shaharlari, aholisi va xo`jaligi xaqidagi ma`lumotlar mo`g`illar, temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar davrida yozilgan manbalarda ham uchrab turadi. Lekin bu ma`lumotlar yaxlit tarzda emas.

Qo`qon haqidagi ma`lumot X asr arab mualliflarining geografiyaga oid asarlarida ham uchraydi. Masalan, Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Istahriy “Katab Masalik” asarida bunday deb yozgan edi: “Kimki Xo`jand Farg`onaning asosiy shahri bo`lgan Axsikentgacha borishni istasa, u Kenddan So`xga bitta manzila va So`xdan Huvakandgacha-bitta kata manzil, Huvakandan Axsikandgacha bir manzil yuradi.

“Hudan ud al-Alam” asarida (983 yilda yozilgan) “Huvaqanda, Rishton va Zendarami shaharlarining aholisi zich joylashgan bo`lib, ekin ekiladigon yerlari ko`p bo`lgan”, deb yozilgan.

Demak, bizgacha yetib kelgan qo`lyozmalarga ko`ra, Qo`qon shahri tarixda arab olamiga X asrdayoq yahshi ma`lum bo`lgan.

Bizning davrimizgacha shahar nomining kelib chiqishi haqida ancha rivoyatlar saqlanib qolgan. Ulardan birida shaharning nomi Xukkan (to`ng`iz, xuklar manzili, qarorgohi, to`ng`izlar yashaydigon joy) so`zidan kelib chiqqanligi haqida hikoya qilinadi. Shahar barpo bo`lmasdan oldin bu joy botqoqlik bo`lgan, bu yerda ko`p to`ng`iz (xuk)lar yashagani uchun uni “Xuk kon” ya`ni to`ng`izlar makoni, to`ng`izlar joyi deb ataganlar. Shaharni qurishda botqoqlik quritilgan,

to'ng'izlar esa qirib tashlangan. Bu haqda tarixiy asarlarda ham ma'lumotlar beriladi. Chunonchi, "Tarix-I Farg'ona" asarining muallifi Ishoqxon to'ra bunday deb yozgan edi: "...shaha bo'lmagan vaqitda Xoqnd o'rni to'qat va qmishzor yerlar bo'lib, ul vaqitda chodak xojalari tojiklar suvorolari ekanlar. Bula to'qaylarda har-xil xo'q va to'ng'izlar yurar ekan. Yerlarni kavlab, har xil ovqat topib yer ekanlar. Bu jihatdan tojik xojalari kelganda necha yerlar kavlangan ekan. Ular bu chuqurlar nima kimlar kovlagan deganlarida, tojik javob berib, "Xukkand" deganda, ya'ni to'ng'iz kovlagan deganda ul yerni ismi "xuk kand" bo'lib, xuk kand etmoqda qiyin bo'lib, bizni turkda"kof" yo'q "Qo'qad" bo'ldi. Shunga o'xshahs har vaqitda har qabila insonlari tabodul o'lib, ma'nolar o'zgaragan, buni ba'zi xuqandiylar yaxshi tavil ila Xuqand derlar, ya'ni feli-xuyi qand degan emish.¹²

Boshqa rivoyatlarga qaraganda, shaharning nomi Havokent (shomollar shahri) so'zidan kelib chiqqan. Shahar qurilgan paytda istiqomat qiluvchilar (afsuski qaysi qabilaligi aytilmaydi) bu yerda shamollning tez tez bo'lishi, poyalar, daraxt tanalarining doimiy kuchli shamollar tasirida bir tomonga egilganligini takidlashadi. Yoshi ulg'ayib keksayib qolgan odamlar, agar shamol ko'p vaqit mobaynida yo'q bolsa, ular o'zlarini yomon xis qilganliklarini, nafas olish qiyin bo'lganligini, yuraklari sanchkanini eslaydilar. Shuning uchun shahar havokent (shamollar shahri, tez tez havoni o'zgartiruvchi, iqlimni salqin qiluvchi, bahri dilni ochadigan, sof bo'lishni taminlovchi ma'nosida) deb atalgan.

I.Toxtasinov, Y.K.Abramov, A.Dadaboev va boshqalarning "hu" so'zining o'zbek tiliga "havo" (havo, shamol) tarzida tarjima qilinib, shu ma'noni bildirishi haqidagi ma'lumoti diqatga sazovordir. Shuning uchun shahar "Havoqand" yoki "Havokent" deb atalgan. Qo'qon tarixiga oid "Ansob-as-salotin va Tavorixi al-hovaqin" nomli kitobida shahar havoqin deb yuritiladi, degan fikr ham bor edi. Bu kitob qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Lekin "Havoqin" so'zi faqat sarlavhada "hoqonlar" ma'nosida qo'llanilgan, matnda esa shahar xo'qand deb yuritilgan.

¹² Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 1996.

Yana bir rivoyatda shaharning nomi “Qo’qon”(ko’p qon, ko’p qon to’kilgan joy) so’zidan kelib chiqqanligi takidlanadi. BU afsonaga muvofiq, uzoq o’tmishda, shahar qurilgan paytda tez tez o’zaro urushlar bo’lib turgan. Cher elliklar, masalan, xitoylar, mo’g’illar, qalmiqlar va boshqalar shaharni bosib olishga intiladilar va uning boy badavlat yashovchi odamlarni qul qilib turganlar. Lekin aholi shaharni yaxshi himoya qilib, astoydil, qattiq turib qarshilik qilgan.

Qo’qonlik tarixni yaxshi biladigon odamlarning ma’lumotlariga qaraganda (Nazirjon Valiev, Usmonjon Abdullayev, Muhiddin Xojjayev, Abdulla Usmonov, Shukirjon Mamatov, Tesha Zoxidov va boshqalar) uzoq o’tmishda sinlar shaharni bosib olishga harakat qilganlar, lekinbuning uddasidan chiqaolmaganlar. Ular ikkinchi marta yana kata qo’shin bilan kelib, shaharni qurshab oldilar. Qo’qonliklar, xatto ularda oziq-ovqat yem xashak tugashlariga qaramay shaharni topshirmaydilar. Sinlar agar shaharliklar o’zlarining hukimdor (podsho) larine tutib bersalar yoki o’ldirsalar, qamalni olib tashlashlarini bildiradilar. Qo’qonliklar bu shartni bajarishni rad qiladilar. Lekin hukimdor tabaqalar til biriktirib, fitna uyushtirib, hukimdorni o’ldirishadi. Shundan keyin sinlar qurshovni olib tashlaydilar va uzoqlashadilar. Ana shu sababli shaharni qonli-“ko’pqon” deb ataydilar. Talaffuzda “P” ni tushirib Qo’qon deb atay boshladilar, keyinchalik esa “K”ning “Q”ga o’zgarishi bilan Qo’qon deb atay boshlaydilar. Keltirilgan afsonaning asosi miloddan avvalgi 104-101 yillarda “ Siyanxanishu” tomonidan tasvirangan voqealardan iborat.

Miloddan avvalgi 139 yida Xitoy hoqonining vakili (josus, ayg’oqchisi) Jan Sin birinchi marta Farg’ona vodiysiga kiradi. Qaytganidan keyin u Xitoy hukumatiga batafsil ma’lumotlar yozadi. Uning gaplari bo’yicha bu vaqitda Farg’onada o’troq bo’lib yashayotgan va dehdonchilik bilan shug’illanuvchi yu-eju qabilalari sholi, bug’doy ekishgan. Shuningdek, u yerda juda ko’p argumoaqlar bo’lganligini ham tasvirlaydi. Qo’shinlarning quroli kamon o’q, nayzalardan iborat bo’lib, asosan otliq askarlar kamondan otishga usta bolgan ekan. Farg’ona hokimi do’stona munosabatlarni o’rnatish maqsadida Xitoyga elchi yuboradi, elchi juda yaxshi kutib olinadi. Xitoy hokimi Farg’onada eng yaxshi arg’umoaqlar borligini

bilib qolib, u yerga o'zining elchilarini yuboradi. Qabul marosimida Xitoy elchisi surbetlarcha "ajoyib otlar" (ya'ni arg'umoqlarni) talab qiladi va Farg'ona hokimi oyog'I tagiga 1000 lak tilla tanga va bitta oltin ot (toycha)tashlaydi. Bu farg'ona hokimining izzat nafsiga tegadi va arg'umoqlarni berishdan voz kechadi. Xitoy elchisiga qo'pollik qiladi. Haqoratlangan oq soqollar (qabila boshliqlari) uni o'dirishga qaror qiladilar. Elchi qo'yib yuboriladi, lekin qaytishda O'zgan shahrida ular o'diriladi. Xitoy hokimi U Di (mil.avv.141-137 yillar) buni bilib qolib. Farg'onani bosib olish uchun qo'shin yuboradi. Lekin Xitoy qo'shinlari mag'lubiyatga duchor bo'ladilar. Oradan bir necha yillar o'tgach (mil.avv.102-yilga yaqin) xitoyliklar Farg'onaga yana xujum qiladilar. Bu vaqitda 60 000 xitoy qo'shini Farg'ona davlati poytaxtini o'rab oladi, lekin uni bosib ololmaydilar. Xitoyliklar suvlarni berkitib qo'yadilar, lekin aholi quduqdan foydalanadi. G'amlab qo'yilgan oziq-ovqatlar tugayotganligidan, ulardan qutilish uchun shahar aholisi hoqonni o'diradi va ularga arg'umoqlarni berish haqida xitoyliklar bilan shartnoma tuzadi. Shunday bo'lsa-da, xitoyliklarni shaharga kiritmaydilar.¹³

Qo'qon toponiminign Xo'qand (yoqimli, latif shahar, yaxshi shahar) so'zidan kelib chiqqanligi haqida tushuncha beruvchi afsona mavjud. Shaharni qurish zarurati paydo bo'lganda tajribali ustalar-shahar quruvchi va ularning rejalarini tuzish bo'yicha mutahassislar o'zlarining hokimiga eng qulay bo'lgan toza suvli va soy orasidagi joyni tanlab olish kerakligini maslaxat qilganlar. Bu joyda ko'p bog'lar va polizlar bore di; yerning o'zi esa juda hosildor bo'lgan. Dushmanni bosib olish havfidan shahar tabiiy to'siq-ikki soy bilanhimoya qilingan. Agar dushman soydagi suvni to'sib qo'ygan holda, quduqlar qazish mumkun bo'lardi, chunki 1,5-2m chuqurlikda suv bo'lib, aholi talabini chuchuk suv bilan qondira olardi. Bundan tashqari, bu yerdan Xitoy va boshqa yerlarga karvon o'tardi. Bularning hammasi shaharni Xo'qand deb atashga qaror chiqarish uchun asos boladi

Haqiqatda esa, qo'lyozma manbalarda (arxiv materilallarida ham) XVIII-XIX asrlarda shahar Xo'qand deb atalgan. Birqancha misollar keltiramiz.

¹³ Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи. – Намангон: Ибрат, 1994.

A.L.Troiskaya tomonidan yozilgan “Qo’qon xalqining arxivi katologi”da Xo’qand toponimi 50 dan ortiq hujjatlarda uchraydi. Hakimxon to’ra tomonidan yozilganquyidagi ma’lumot diqqatga sazovordir: “Rahimxonni sohibqiron der edilar va necha fursatdan keyi Xo’qand hukumatini ukasiAbdukarim biyga tashlab, o’zi Xo’qand viloyatiga kelib qaror tobd va ul vaqitda Xo’qand yangi obod bo’lgan edi”.

XIX asr shirasi Dilshodning (1081-1905/06yy) sherlarida quyidagilarni o’qishimiz mumkin: “Ko’ylagingiz ozozdlik mazmunida siz biobo, Tinglasun Toshkent, Xo’qand, Xo’jand va Farg’ona” “Tarixi Turkiston” muallifining ma’lumot berishicha, “ shul tariqa ila Buxoro qo’shini muddat ikki oy Xo’qandni qamab yotib, bu muddat ichida Xo’qanddin oq uyliq qilib olib ketgan Xo’qand umarolaridan Shodi dodxon bir necha boshqa umarolar ilan amir qo’shinidan qochib Xo’qandga Sheralixon xizmatiga kelibdur.

“Xo’qand” vaqitli matbuotdahn ko’p qo’llanildi. Masalan, “Xo’qand viloyati o’rusiya mamalakati bilan do’st bo’lib turmoqda, foydasi bor ekanini xo’p bilur ekan”.

Ushbu satrlar muallifi 1927 yilning 29 avgustida yozilgan vasiyatnoma bo’lib, unda ham “Xo’qand” toponimi uchraydi: “Tahdid bir qit’a quruq yer taxminan besh yarim tanob Xo’qan dshahrini ganjiravon qishloqda... 2-taxdid bir qit’a taxminan uch tanob sholikori yer qishlikda... ma’lum tarix 1346 sana hijriy ikkinchi robbi-al-avvalda, 1927 yilinda 29-avgust oyinda ediki, Qatog’on daxe Mirza yoqub mahallalalik Muhammad Nosirboy mashhu o’z so’zi ilan..”¹⁴

Qo’qon so’zining kelib chiqishiga akademik V.V.Bartold katta ahamiyat bergan. U jumladan bunday deb yozgan edi: “Qo’qon” arabcha Xuvaqand deb yozilgan, keyinchalik Xoqand “to’ng’izlar shahri”. Davom etib quyidagilarni o’qiymiz: “Boburning asarlarida “Qo’qon” shahar tarzida tilga olinmaydi, garchi unda Jamol Qarshiy bo’yicha, Imom Muhammad al-Boqirning akalaridan biri bo’lmush musulmon avliyo imomi Abdullox ibn Alining maqbarasi joylashgan bo’lsa ham”. Bu nomning o’zi Bobur asarlarida Xo’qan okrug (archin) tarzida

¹⁴ Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи. – Намангон: Ибрат, 1994.

yozilgan: XVII asrda (qarang: Muhammad Vafo Karmanagiy, Tuhfad al-xoni, l. 50) Qo'qon shakli paydo bo'ldi, ruscha berilgan ma'lumotlarda esa Kokan deb yuritildi. Xoqand shakli, ruscha Kokand faqat XIX asrda adabiy an'ana tufayli shakillandi. Uning fikricha ham (shubhasiz, bunom jonli nuqda qo'llanilib, adabiy to'g'ri shakli Xokand deb o'zgartirildi), bu yerda o'rta asrlarda mavjud bo'lgan "Xoqan" qishlog'i o'rnida "Qo'qon" shahri yuzaga kelgan. Shuningdek, XIX asrda yozilgan qo'lyozma asarlarda "Qo'qan", "Qo'qand" variantlari ham uchraydi. Masalan, Qo'qon shahridagi Hamza adbiy muzeyning kata ilmiy xodimi A.Madaminovning shahsiy kutubxonasida qo'lyozmalaridavuchraydi.

Fikrimizcha, Havokin yoki Havokent Qo'qonning kelib chiqish nomi bo'lishi mumkin emas, chunki Havoqin-bu "hoqon" (hokim, podsholar) ning ko'plikda qo'llanilishidir. Xo'qand so'zi ham Qo'qon so'zining kelib chiqishi bilan bog'liq emas, buni "Tarix-I Farg'ona" qo'lyozmasida bayon qilingan rivoyatlar ham tasdiqlaydi. Shunday ekan, XVIII asr boshida shaharni qurish uchun joy tanlash haqida, ya'ni ijtimoiy hayotda musulmon dini to'liq hukimron bo'lgan davrda xo'jalarning uni ilgari to'ng'izlar yashab hor qilgan, bulg'agan joyda qurishga rozilik berishi dargumon endi. Ayniqsa, ular shaharni uning nomi bilan atshga rozi bo'lmasdilar. Xoqand IX-X asrlardagi qo'lyozma manbalarda ko'proq tilga olinadi. "Xokkand" haqidagi afsona esa XVIII-XIX asrlarda paydo bo'ldi. Shuningdek, Qo'qon ham Qo'qon so'zining kelib chiqishi uchun asos bola olmaydi, chunki shahar bir necha yillar davomida nomsiz mavjud bo'la olmaydi-ku, onda-sonda bir yuz beradigon urushlar va chet elliklarning hujumlari tasodifiy hususiyatga ega bo'lardi.

Shahar quriladigon joy haqida "Tarix-ixTurkiston"ning muallifi Mulla Olimning hikoyasi diqqat e'tibordan xoli emas. U.masalan, bunday deb yozgan: Odamkardon va xushyor va tajribakordan bir nechalariga amr qilinibdurki: "O'rda va qo'rg'on qilmak uchun bir yaxshi va munosib joy topinglar",-deb. Ular ko'p joy va mavzelarni qarab ko'rib, oxiri ikki soyning o'rtasiga, ko'k to'nlik azizlar mavzeiga, jar yoqasiga o'rda va ark mustahkam barpo qilib, hamma arqon davlat va imoratlar bino aylab, o'zlari uchun xona va manzil tartib qilib, andak fursatda

bul shahar va ark, imoratlarni tayyorlab yaxshi kun vas oat ma'uda hamma viloyat va askar, va fuqaro, va xosu avvan jam bo'lib, Shohruhxonnin podshoh libosi ilan podshoh ko'tarib o'tazib durlar.

Qirg'izlarda ham "qo'qulinlilar" urug'i borligini nazarda tutish kerak. Shuningdek, ta'kidlash, o'rinliki, xitoyshunos A.Xo'jayevning so'zlariga ko'ra, qadimgi xitoy qo'lyozmalarida Farg'ona vodiysida yashovchi "xu" xalqlari uchraydi.

Eng muhimi Qo'qonning kelib chiqishi (etimologiyasi) Xo'qand so'zi bilan bog'liqdir. Ishoxon To'ra "Jand shahri xususida" maqolasida "xu" "yaxshi" ma'nosini bildirishini yozadi va uni qator misollar bilan tasdiqlaydi¹⁵.

Ko'pgina qo'lyozma manbalarda va Qo'qon tangalarida ("Xo'qandi latif") ifodasi uchraydi. XIX asrning mashxur xitoyshunos olimi N.Y.Bichurinning bunga bog'liq ravishda bergan ma'lumotlari diqqatga sazovordir. Unda tadqiqotchi shunday xabar beradi: "Davon-Qo'qondir, va shahar ham ulkandir. Chjan Syan O'rta osiyo bo'ylab o'zining sayohati haqida hikoya qilganda, Qo'qon mahalliy kishilarining so'zlariga ko'ra boshqa o'lkalarning masofasi va joylashgan o'рни hattoki hozirgi Qo'qonga ham nisbatan juda aniq darajada ekanligini isbotlamoqda: masalan, usunidagi yangi poytaxt chugu shahri Temurtu-Nordan Shimoli sharqqa, ko'chadi Shimoli g'arbga ili daryosining janubi tomoni bo'ylabyo'nalgan, demak, qo'qondan chigugacha yo'l masofasi 2000 lidan oshmagan bo'lishi kerak...

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Farg'ona vodiysida O'zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan shaharlar soni nisbatan ko'proqni tashkil etadi. Vodiy shaharlari jumlasiga, Qo'qon, Farg'ona vodiysi shaharlari toponomiyasida O'zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan o'ziga xosliklar ham uchrab turadi. Qo'qon shahri aksariyatining nomlanishi to'g'risida bir nechtdan afsona va rivoyatlar mavjud. Shuni alohida qayd etish joizki, Farg'ona vodiysi shaharlarining aksariyatini toponomiyasi xanuzgacha jumboqligicha qolmoqda.

¹⁵ Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Маънавият, 2005.

2.Bob. Shaharning Qo‘qon xonligi davridagi ijtimoiy-siyosiy mavqei.

Mahalliy tarixchi va arxeologlar orasida shaharning yoshi 2 ming yildan ortiq degan taxminlar mavjud. Qo‘qonga oid dastlabki ma’lumotlar X asr yozma manbalarida uchraydi. Bu haqida oldingi bobda to‘xtalib o‘tdik. Qo‘qon shahrining XVIII asrgacha bo‘lgan siyosiy tarixi haqila ma’lumotlar juda oz. Qo‘qon podsho Rossiyasi qo‘shinlari tomonidan zabt etilganda Qo‘qon xonligi arxivining ko‘p qismi olib ketilgan. Qo‘qon qadimda Hindiston va Xitoyga boriladigan karvon yo‘lida joylashgan. XIII asrda mo‘g‘ullar tomonidan butunlay vayron qilingan. Shundan keyin XVIII asrgacha Qo‘qon kichik aholi turar joyi sifatida mavjud bo‘lgan. 1710 yilda Qo‘qon xonligi tashkil topgach, 1711 yilda Eski qo‘rkon qal’asi o‘rnida tepalikda Qo‘qon shaxriga asos solindi, istehkom va qal’a barpo etildi. 1732 yilda Abdurahimbiy bu ishni nihoyasiga etkazdi va shaharni xonlik poytaxtiga aylantirdi. Shu davrdan boshlab shahar Qo‘qon deb atala boshladi. Shaharning mustahkam devori, 12 darvozasi (Xo‘jand, G‘oziyog‘liq. Quduqliq, Sarmozor, Namangan, Chimyon, So‘x, Margilon, Rishton, Mo‘yimuborak Qatagon, Isfara) bo‘lgan. Ko‘qon hududi 12 ma’muriy bo‘lak (daha)ga taqsim kilingan. Shaharda 3 mingga yaqin xonadonda 31 ming kishi yashagan¹⁶. Norbo‘tabiy davrida (1766—1798) ravnaq topdi, Sharqning savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlaridan biriga aylandi.

XVIII asrning 80-yillarida Qo‘qon xoni Norbo‘tabiy o‘z davlati hududlarini kengaytira borib, Xo‘jand, O‘ratepa va Jizzaxni o‘ziga qaratish uchun urush harakatlarini olib bordi. Albatta Toshkent Qo‘qonga qarshi kuchlar tomonida bo‘ldi. Natijada 1794 yilda Qo‘qon xoni Norbo‘tabiy Toshkentni bosib olish niyatida urush harakatlarini boshlab yubordi. Biroq Chirchiq daryosi bo‘yidagi jangda Yunusxo‘ja qo‘shinlari unga qashshatgich zarba beradilar. Sirdaryoning o‘ng qig‘og‘idagi erlar Toshkentga qo‘shib olinadi. 1799 yilda qo‘qon qo‘shinlari

¹⁶ R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov., O‘ Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil.

Toshkentga yana hujum uyushtirdi va Chirchiq daryosidan o'tdi. Qorasuv arig'i bo'yida har ikkala tomon o'rtasida qattiq jang bo'ldi. Bu jangda Yunusxo'ja yana o'z raqibin mag'lubiyatga uchratdi va Qo'qon lashkarboshisi Xonxo'jani, 70 nafar nufuzli harbiylar va askarlarni asir qilib oldi.

Yunusxo'ja Qo'qon xonligi ustidan ikki marta g'alaba qonzonganligiga mahliyo bo'lib, endi uning o'zi harbiy tashabbus ko'rsatib Qo'qonga qarshi yurish qilishga zo'r tayyorgarlikni boshlab yubordi.

Bu paytda Qo'qon taxtiga Norbo'tabiyning o'g'li Olimxon kelgan edi. U O'ratepa, Jizzax va Xo'jandni Buxoro amirligidan tortib olib xonlik hududlarini ancha kengaytirgan edi. Shu boisdan mahalliy ulamolar Yunusxo'jaga Qo'qonga qarshi harakat qilmaslikni maslahat berdilar. Ammo Yunusxo'jaga bu maslahat kor qilmadi. U 1800 yilda 7-8 ming kishilk qo'shin bilan yo'lga chiqadi va Qo'qonga yaqin bo'lgan «Pungon» degan joyga keladi. Bundan xabar topgan Qo'qon xoni Olimxon Yunusxo'jaga nopisandlik bildirib «o'zidan past kishi bilan teng kelish» ni or bilib urgaga qarshi («gurum») «Xaramsaaroy» mavzeining hokimi So'fi Alixo'ja Mirasad boshchiligida qo'shin jo'natdi. Bu jangda Yunusxo'ja askarlari talofatga uchrab engiladi. Qo'qonliklar Yunusxo'ja kuchlarini quvlab Toshkent davlat hududiga qarashli «Kryauchi» qal'asini egallaydilar.

Shundan so'ng Qurama mavzei Qo'qon xonligi qo'li ostiga o'tadi. Yunusxo'ja biroz vaqt o'tgach dardga chalinib vafot etadi. Uning o'rniga Sultonxo'ja taxtga o'tiradi. Yunusxo'ja vafotidan xabar topgan Olimxon ukasi Umarxon boshchiligida Toshkentga qo'shin jo'natadi. Toshkent va uning atrofidagi erlar 1805 yilda Qo'qon xonligi tomonidan bosib olinadi. 1809 yilga qadar CHimkent, Sayram, Turkiston hududlari ham harbiy kuch vositasi bilan Qo'qon xonligiga qo'shib olindi. Olimxonning markzlashgan davlatni barpo etish yo'lidagi qattiq qo'l siyosati, ba'zi bir bek va biylarning noroziliklariga sabab bo'ldi. Ular xonga qarshi fitna uyushtirdilar. Olimxon o'ldi deb mish-mish tarqatishdi va ukasi Umarxonni Qo'qon xoni deb e'lon qilishdi. Olimxon bundan xabar topib Qo'qonga shoshildi. Ammo yo'lda otib o'ldirildi.

Toshkentning qo'lga kiritilishi Qo'qon xonligining kuch-qudratini va salohiyatini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Chunki u mintaqaning eng yirik shahari edi. Undan boshlab taxt egalariga odatdagidek «biy» emas, balki «xon» unvoni beriladigan bo'ldi. Ayrim mahalliy manbalarga ko'ra, Olimxon nihoyatda qattiqqo'l va shavqatsiz kishi hisoblangan. «bu Olimxonning laqabi,- deyiladi manbada,-Zolimxon edi. U o'z amakisi Hojibekni qatl qilib ko'p zulmlar chiqargan ediki, buni g'azabindan va zulmindan zolimxon ismi mashhur edi...».¹

1805 yildan bu davlat rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qilindi va Olimxon «xon» unvonini oldi. Shu davrdan boshlab ichki va tashqi siyosatda xonlik bir qator muvaffaqiyatlarga erisha boshladi. Biroq, Markaziy hokimiyatning kuchayib borishi, davlatni boshqarishda xonning cheksiz huquqlarga ega ekanligi, Olimxonning siyosatidan norozi ayrim guruxlarning unga qarshi fitnasiga olib keldi (manbalarda u «Zolimxon» laqabi bilan atalganligi haqida ham ma'lumotlar uchraydi). Olimxon o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun Rustambekni va bir qancha sarkardalarni, din peshvolarini o'ldirtirib yuborgandan so'ng, fitnachilar safi yanada ortdi. Manbalarda ularga Olimxonning ukasi Umarbek boshchilik qilganligi ta'kidlanadi. Nihoyat, 1810 yilda Olimxon Qo'qonga kelayotganda o'g'li Shohruhxon bilan birga fitnachilar tomonidan otib o'ldiriladi va taxtni ukasi Umarxon egallaydi. Uning hukmronligi davrida (1810-1822) xonlikda siyosiy vaziyat murakkabligicha qoldi. Chimkent va Turkistonda g'alayon ko'tarildi. O'ratepa hokimi xonga itoat etishdan bosh tortdi. Ammo davlatni boshqarishda katta ta'sirga ega bo'lgan din peshvolari va harbiy sarkardalar bilan ittifoq bo'lib ish tutgan Umarxon bu g'alayonlarni bostirib, xonlik hududini bo'linib ketishidan saqlab qoldi.

1818 yilda Qo'qonda katta jome' masjidini qurish haqida farmon berib, din homiysi sifatida ham o'z mavqeini yanada oshirdi. Natijada «Amir-ul-muslimin» unvonini va diniy hokimiyatni ham o'z qo'lga olishga erishdi. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qonda adabiyot, she'riyat ancha yuksaldi. Xonning o'zi ham yaxshi she'rlar bitganligi ma'lum. 1822 yilda «Jannatmakon» nomini olgan

¹ Ибрат. «Фарғона тарихи» Б.287.

Umarxon kasallanib vafot etgach, taxtga o'g'li Muhammad Alixon o'tiradi. Tarixda Madalixon nomi bilan qolgan bu hukmdor davrida (1822-1842) Qo'qon xonligi ancha yuksaldi. Qorategin, Ko'lob, Darvoz viloyatlari va boshqa bir qancha erlar bosib olinib, xonlikning hududi ancha kengaytirildi. 1826-1831 yillar davomida bir necha marta Qashg'arga hujum qilib, Xitoyliklar bilan urush olib bordi. Qo'shg'arda musulmonlarni Xitoyliklar zulmidan ozod etish uchun olib borilgan bu urushlar tufayli Madalixonga din peshvolari «Tozi» (ya'ni «din homiysi», «din yo'lida kurashuvchi») unvonini berdilar. Qashg'arda olib borilgan yurishlar paytida 70 ming uyg'ur musulmonlari Andijon viloyatiga ko'chirilib keltirildi¹⁷.

Bu davrda Buxoro amirligi bilan ham chegara shaharlar uchun tez-tez harbiy to'qnashuvlar bo'lib turdi. Bu feodal urushlar mehnatkash xalq zimmasiga yangi soliqlar solinishiga va aholi turmushining og'irlashiga olib keldi. Natijada bir necha marta xalq g'alayonlari yuz berdi. Hukmronligining so'nggi yillarida davlat ishlaridan ko'ra ko'proq ayshu-ishratga berilib ketgan Madalixondan norozi bo'lgan kuchlar unga qarshi fitna tayyorlaydilar. Qo'qonda Madalixon o'z otasining kanizagiga, ya'ni o'gay onasiga uylandi va bu bilan u musulmonchilikdan chiqib, kofir bo'ldi degan gaplar tarqatildi. Davlatni boshqarishda katta tajribaga ega bo'lgan va xonning yaqin maslahatchisi Mingboshi Haqquli tuhmatga uchrab xon tomonidan qatl qilinganligi fitnachilarga yanada qo'l keldi. Fitnaga bosh qo'shgan Kozi Kalon, lashkarboshi, sarkarda Isoxo'ja, mingboshi, Toshkent hokimi va boshqalar Madalixonni taxtdan ag'darib, Olimxonning o'g'li Sperialini yoki Murodbiyning Madalixonni o'z kuchlari bilan ag'darishga ko'zi etmagan fitnachilar Buxoro amiriga bir necha maktub bitib, elchi yuborib, amir nasrulloxondan «kofir» deb e'lon qilingan Madalixonni taxtdan ag'darish va jazo berishni iltimos qiladilar. Qo'qon xonligini zabt etib, Buxoroga qo'shib olishni rejalashtirib yurgan amir Nasrullo 1842 yil aprelda katta qo'shin bilan Qo'qonga yurish qiladi va shahar yaqinida qarorgoh qurib joylashadi. Buxoro qo'shinlarining to'satdan bosib kelganidan qattiq vahimaga tushgan Muhammad

¹⁷ R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov., O' Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil.

alixon (Madalixon) katta o'g'li Muhamad amin, Qozi Kalon va Lashkarboshni sulh tuzish uchun amir huzuriga yo'llaydi. Ularga Madalixon amirning hamma shartlariga ko'nishga, xatto Qo'qon xonini Buxoro amirining vassali deb tan olishga, amir nomini xutbaga qo'shib o'qitishga, amir nomidan tanga zarb qilishga rozi ekanligini bildirish topshirilgan edi. Amir elchilarni yaxshi kutib olib, ular bilan suhbatlashshandan so'ng, Madalixonning o'g'lini va Qozi Kalonni Qo'qonga qaytarib yuboradi. Lashkarboshi amir bilan suhbatda Qo'qon aholisi va amaldorlari Madalixonni himoya qilish niyatida emasligini ochiq, e'tirof etadi. Amir Nasrullo Lashkarboshini ham xon huzuriga yuborib, Madalixonni o'z qarorgoxiga taklif etadi. Bundan tashvishga tushgan va saroy amaldorlarini asl niyatini payqagan Madalixon yashirincha saroy xazinasini, oilasini olib, o'ziga sodiq bo'lgan 1000 kishi bilan Qo'qondan Namangan tomonga qochadi. Qushbegi, Qozi Kalon va boshqa amaldorlar «etim bo'lib qolgan» Qo'qonga amir Nasrulloni taklif etib yana amir qarorgoxiga bordilar. Jangsiz Qo'qonni egallagan amir Nasrullo o'z qo'shini bilan shaharga kirib keldi va xonning xazinasini olib qochganligidan g'azabga tushib, Qo'qonni talon-taroj qilishga farmon beradi. Ertasi kuni esa aholidan zo'rlik bilan tortib olingan narsalar majburan yana Qo'qonliklarga sotiladi. Faqat kumush va oltin buyumlar xazina uchun olib qolinadi.

Amir Nasrullodan Madalixon va uning oilasini tutib keltirish haqida buyruq olgan bir necha Qo'qonlik qochoq xonni tutib keltirishni o'z zimmalariga oladi. Qo'qondan qochgan xon Namangan yo'lida bir qishloqda bir kecha tunash uchun qolgan edi. Ertalab turgan sobiq xon o'zining 1000 kishilik sodiq kishilaridan faqatgina 3 kishi qolganligini, qolganlari Qo'qondan olib qochilgan buyumlarni olib g'oyib bo'lganligini bilib qattiq sarosimaga tushadi. Spunda u Qo'qonga qaytishga, amir oldida tiz cho'kib shafqat so'rashga jazm etadi. «O'z ixtiyori bilan kelib, tobelik izxor qilgan xonni o'ldirishga jazm etmaydi» deb umid qilgan Madalixon yanglishgan edi.¹⁸ Qo'qonga kirib kelishi bilan uni tutib keltirishni o'z zimmalariga olgan kishilar tomonidan qo'lga olinib, amir huzuriga olib kelinadi.

¹⁸ R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov.,O' Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil.

Turli joylardan uning oila a'zolari: onasi Nodirabegim, ukasi, o'g'illari va xotinlarini tutib keltiradilar.

Manbalarda ta'kidlanishicha, Madalixonning xaramidagi kanizaklar 40 ta aravada Buxoroga jo'natiladi. Madalixon, uning onasi, ukasi va katta o'g'li qatl etiladi. Qo'qonda 12 kun turgan amir Nasrullo Qo'qon xonligini Buxoroga qo'shib olinganligin e'lon qilib, Qo'qonda o'z noibi etib Ibrohim Dodoxni Mangitni qoldiradi. Unga bir necha amaldorlar va 600 kishilik qo'shin berib, o'zi esa sobiq xon xizmatida bo'lgan 250 ta amaldorlarni garov tariqasida Buxoroga olib ketadi. Lekin osonlik bilan qo'lga kiritilgan Qo'qon xalqiga o'tkazgan jabr-zulmi soliqlarning xaddan tashqari oshirilganligi tufayli Qo'qonliklar 1842 yilning yozida qo'zg'olon ko'tarib, qipchoqlar yordamida buxoroliklar qo'shinini tor-mor etib, taxtga sheralixonni ko'taradilar. To'raqo'rg'onda oq kiygizga solinib xon deb e'lon qilingan Sperialixon katta qipchoq qo'shini bilan Qo'qonga kirib keladi. Ibrohim dodox va uning ukasi Ishoq Mang'it Xo'jand orqali Buxoroga qochib qolishga muvaffaq bo'ladi. Amir ularni qattiq jazolab, mol-mulkini tortib oladi va 1842 yil kuzida 20 ming qo'shin bilan yana Qo'qonga yurish qiladi. Qo'shin safiga garovga olingan 250 ta qo'qonlik amaldor ham bor edi.¹ Qo'qon ahli taslim bo'lish haqidagi taklifni rad etadi. Spunda garovga olingan amaldorlardan biri, Madalixon davrida yuzboshi bo'lgan Musulmonqul qipchoq qo'qonliklarni taslim bo'lishga ko'ndirishni o'z zimmasiga olib, amir ruhsati bilan qo'qonliklar huzuriga taslim bo'lishga olib, amir ruxsati bilan qo'qonliklar huzuriga keladi. Lekin u qo'qonliklarni amir qo'shinlariga taslim bo'lmaslikka undab, shahar mudofaasini kuchaytirishga bosh bo'ladi. Bundan qattiq g'azabga tushgan amir Nasrullo Qo'qonni qo'lga kiritmasdan qaytmaslikka ahd qilib shaharga qattiq hujum qiladi. Lekin qamal cho'zilib keta boshlaydi. Bu borada Xiva qo'shinlari Buxoro chegaralariga bostirib kirib, bir necha yuz oilani asr olib ketganligi haqidagi xabarni olgan amir Nasrullo garovga olingan amaldorlarni ozod qilib Buxoroga qaytishga majbur bo'ladi. Bu vaziyatda Qo'qonni Buxoroga tobelikdan saqlab

¹ Бобобеков Х.Н. Народные движения в Какандском ханстве и их социально экономические и политические предпосылки (XVIII-XIX в.в). Т., «Фан» 1990 г. 77 стр.

qolgan Musulmonqul qipchoq mingboshi lavozimini oladi. Xonlikdagi boshqa lavozimlar ham qipchoq beklariga topshiriladi.

1845 yilgacha Qo‘qon xonligida xotirjamlik hukm surdi. Xivada yashaydigan va O‘loko‘lixon o‘limidan so‘ng taxtga o‘tirgan Muhammad Rahim bilan kelisha olmagan murodbek Xojiboy o‘g‘li 1844 yilda Buxoroga keladi. Amir Nasrullo saroyida 1 yilcha yashagan Murodbek 1845 yil yozida Buxoro lashkarlari bilan Qo‘qonga yurish qiladi. U Sheraxixonning o‘ldirib taxtni egallashi, ko‘rsatilgan yordam evaziga qo‘qon xonligi Buxoroga vassal bo‘lib qolishi kerak edi. Musulmonqul boshchiligidagi qipchoqlar zakot yig‘ish uchun ketganligi sababli, himoyasiz qolgan Qo‘qonni osonlik bilan qo‘lga kiritgan Murodbek Sheraxixonning qatl etib Qo‘qon taxtni egallaydi va o‘zini amir Nasrulloning vassali deb e‘lon qiladi. Bundan xabar topgan Musulmonqul qipchoq qo‘shinlari bilan kelib, Qo‘qonliklar yordamida shaharni yana qo‘lga kiritadi. Bor yo‘g‘i 8 kun taxtda o‘tirgan Murodbek qo‘lga tushirilib qatl etiladi, uning xizmatida bo‘lgan amir qo‘shini Buxoroga qaytib ketadi. Taxtga Sheraxixonning 13 yoshli o‘g‘li Xudoyorxon o‘tkaziladi¹⁹. Lekin amalda hokimiyat Xudoyorxonning qaynotasi Musulmonqul mingboshi qo‘liga o‘tadi.

Bu xolat 1850 yilning oxirigacha davom etdi. Musulmonqul qipchoq amalda saroyda cheksiz hokimiyatga ega bo‘lgan bosh vazir, birinchi amaldor hisoblanib, bundan o‘z shaxsiy manfaatlari uchun ham unumli foydalangan. Bu Qo‘qondagi katta-kichik amaldorlarda, birinchi galda qipchoq urug‘idan bo‘lgan amaldorlarda ham norozilik uyg‘otdi. Musulmonqulga qarshi qipchoqlar orasida ham kuchli dushman guruh paydo bo‘ldi. Bu guruhga O‘ratepa, Xo‘jand hamda Marg‘ilon beklari birlashib, ularga Toshkent hokimi Nurmuhammad ham qo‘shildi. Saroy xazinasini talon-taroj qilishda ayblangan dasturxonchi va risolachi Toshkentga qochib ketgandan so‘ng 1852 yil fevralda Musulmonqul mingboshi va xon boshchiligidagi 40 ming qo‘shin Toshkentni qamal qiladi. Lekin Marg‘ilon qushbegisining 600 kishi bilan Toshkentliklar tomonga o‘tib ketishi hamda qamalning cho‘zilib ketganligi sababli bu yurish muvaffaqiyatsiz yakunlanadi.

¹⁹ R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov., O‘ Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil.

1852 yilning iyun oyida Musulmonqul mingboshi 30000 kishilik qo'shin bilan yana Toshkentga yurish qiladi. Chirchiq daryosi bo'yidagi hal qiluvchi jang paytida Xudoyorxon o'z qo'shinining katta qismi bilan Toshkentliklar tomoniga o'tib ketadi. Bu saroyda Musulmonqul qipchoqqa qarshi boshlangan kurashda hal qiluvchi burilish edi. Xonning himoyasidan mahurm bo'lgan Musulmonqul chipchoq qo'shini tor-mor etilib, uning o'zi bir guruh odamlar bilan zo'rg'a qochib ketishga muvaffaq bo'ladi. Bu voqealardan so'ng Qo'qonda saroy amaldorlari etib Musulmonqulga qarshi kurashgan guruhlar tayinlanadi. Xususan, Marg'ilon qushbegisi Utenbey qipchoq mingboshi etib tayinlanadi. Lekin ularning hukmronligi ham uzoqqa cho'zilmadi, negaki 1852 yilning kuzida xonlikda butun qipchoqlarni qirg'in qilish boshlanib ketdi. Natijada 20 ming qipchoq o'ldirildi.²⁰ Bunga Xudoyorxonning o'zi boshchilik qildi. Saroydagi amallarni egallab turgan barcha qipchoqlar ham qatl etilib, ularning er-mulklari musodara qilindi. 1853 yilning kuzida qora-qirg'izlar orasida yashrinib yurgan Musulmonqul qipchoq tutilib, Qo'qonga olib kelindi va Xudoyorxonni taxtga o'tkazgach, shaharni 2 marta buxoro amiridan saqlab qolgan Musulmonqul qipchoq Qo'qon xoni tomonidan o'ldirildi.

Bu paytda Qo'qon xonligi bilan Rossiya munosabatlari ancha keskinlashdi. Sirdaryoning o'rta va quyi oqimidagi katga hududini nazorat qilib turgan Qo'qonliklar bilan Rossiya o'rtasidagi dastlabki to'qnashuvlar 1850-1851 va 1852 yillarda sodir bo'ldi. Qo'qon xonligidagi ichki nizolardan foydalangan ruslar 1853 yilda general-adyutant Perovski boshchiligida Oqmachit qal'asini bosib oldilar. Qo'qonlik sarkarda Yoqubbek boshchiligida qo'qonliklar Oqmachitni qaytarib olish uchun ikki marta katta kuch bilan hujum uyushtirgan bo'lsada, ular natijasiz tugadi. Keyinchalik Yoqubbek Sharqiy Turkistonga ketishga majbur o'bladi va qashg'ar hokimligini qo'lga kiritadi.

Shu tariqa Rossiya imperiyaning Orenburg va Omsk shaharlari bilan chegaradosh bo'lgan Qo'qon xonligi hududiga xavf sola boshladi. Lekin bu tashqi xavf o'zaro ichki nizolar, hokimiyat uchun kurash girdobida qolgan

²⁰ R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov., O' Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil.

qo‘qonliklarning ko‘zini ochmadi. Mamlakatda siyosiy nizolar davom etdi. Xudoyorxon 3 marta taxtdan mahrum etilib (1858,1863, 1865), har gal Buxoro amiri tomonidan Qo‘qon taxtiga ayta o‘tkazilganligi, xonlikdagi davlat boshqaruv tizimidagi parokandalikdan dalolat berar edi. 1858 yilda Xudoyorxonni SHeralixonning ikkinchi xotinidan bo‘lgan o‘g‘li Mallaxon taxtdan ag‘darada va Xudoyorxon Buxoroda panohtopadi²¹.

1862 yilda Mallaxon o‘z vazirlari mulla Olimko‘l va Olimbek qirg‘izlar qo‘lida o‘ldirilgach, taxtga Xudoyorxonning akasi Sarimsoqbekning o‘g‘li SHoxmurod o‘tkaziladi. Lekin qo‘shin boshliqlari va saroydagi ko‘pchilik amaldorlar o‘nga qarshi fitna uyushtirib, Xudoyorxonga yana taxtni olishni taklif etib, kishi yuboradilar. Mallaxon o‘limini eshitgan Xudoyorxon bu paytda amirning ruxsati bilan Jizzax qal‘asiga kelgan edi. Maktubni olgan Xudoyorxon Toshkentga kelib, Qanoat parvonachi boshlik Toshkent qo‘shini bilan Xo‘jandga keldi. Bu orada amir Muzaffar ham Buxoro lashkarlari bilan Xo‘jandga etib keladi. Amirning ruxsati bilan Xudoyorxon Qo‘qonga yurish qiladi. Mulla Olimqul qipchoq-qirg‘iz qo‘shinini olib shahardan chiqib ketadi. Ozgina qo‘shin bilan qolgan Spohmurod Marg‘ilonga qochadi. 1863 yilda Xudoyorxon ikkinchi marta taxtni egallaydi.

Qo‘qon taxtiga Xudoyorxon o‘tirgandan so‘ng amir xotirjam bo‘lib Buxoroga qaytadi. Xudoyorxon katta sovg‘alar bilan Buxoroga elchi yuboradi. Lekin elchilar boshlig‘i, Xudoyorxonga taxtni qayta egallashga yordam bergani uchun otalik, unvonini olgan Toshkent hokimi Qanoatxon amir tomonidan o‘ldiriladi. Qirg‘iz-qipchoq qabilalarida yashirinib turgan mulla Olimqul xudoyorxonga bo‘ysunmay, tez-tez g‘alayonlar ko‘tarib turdi. Natijada 1863 yil iyul oyida Xudoyorxon yana buxoroga qochadi²² Qo‘qon taxtiga Sultonmurod o‘tkaziladi.

Bu ichki nizolar tashqi dushmanga qo‘l keldi. Vaziyatdan foydalangan chor Rossiyasi qo‘shinlari 1864 yilda Turkiston va CHimkentni bosib oldi. 1865 yil

²¹ Воҳидов Ш. «Қўқон хонлиги, Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар». Т., «Фан» 1996 й. Б.32.

²² Ўша асар. Б.33

bahorida ular Toshkentga yaqinlashib Niyozbek qal'asini ishg'ol qiladilar va Toshkentga hujum qildilar. Mulla Olimko'l boshchiligidagi 6 ming Qo'qonlikning yordamga kelishi ham bosqinchilarni to'xtata olmadi. Mulla Olimko'l jangda yaralanib Toshkentda vafot etadi. Bir necha oylik qamal va janglardan so'ng 1865 17 iyunda Toshkent chor Rossiyasi o'qilga o'tdi.

Qo'qondagi sarosimalikdan foydalangan Xudoyorxon 1865 yil yozida amir qo'shinlari yordamida so'nggi marta Qo'qon taxtini qo'lga kiritadi. Qo'qonda amir Muzaffar nomiga xutba o'qitdi. Qirg'iz-qipchoq qo'shinlari ko'magida taxtni egallab turgan Xudoyqulibek (14 kun taxtda o'tirgan) esa xazinani olib Qashg'arga qochib ketadi.

Siyosiy-iqtisodiy va harbiy jihatdan qaloqlik, diniy jaholat, aqidaparastlik, siyosiy kaltabinlik oqibatida o'zaro taxt talashishlar, hokimiyat uchun kurashlar bu davrda ham barham topmadi. Natijada 1866 yilda Xo'jand, O'ratepa va Jizzax chor Rossiyasi qo'lga o'tdi. Bosib olingan hududlar Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilib Turkiston general-gubernatorligi tuzildi. Poytaxti Toshkent shahri bo'lgan bu yangi siyosiy tuzlmaning birinchi general-gubernatori etib general-ad'yutant K.P.Kaufman tayinlandi. U sharq tillarini puxta egallagan, sharq diplomatiyasidan yaxshi xabardor kishi edi. Qo'qon xonligining katta qismini qo'lga kiritgan chor Rossiyasi o'z istelolariga qonuniy tus berish uchun 1868 yilda Qo'qon xoni bilan shartnoma imzoladilar. Qo'qonga kelgan polkovnik SHaifus rahbarligidagi Rossiya elchilari va Xudoyorxon o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra Qo'qon xonligi amalda Rossiyaning vassaliga aylanib qoldi. Xonlikning barcha tashqi aloqalari turkiston general-gubernoatorligi bilan kelishilgan holda, amalda ruslar nazorati ostida olib boriladigan bo'ldi. Rossiya savdogarlari Qqo'on xonligida ancha imtiyozlar yaratib berildi.

XIX asrning 70-yillari boshiga kelib, xonlikda siyosiy vaziyat yanada keskinlashib ketdi. Xonlik chegaralarining qisqarib ketganligi xazinaga tushadigan daromadlarning kamayishiga olib keldi. Saroy harajatlarini qoplash, katta-kichik amaldorlarni, qo'shinni maosh bilan ta'minlash uchun halq ommasiga yangi soliqlar joriy etildi. Bu o'z navbatida halqning xon hokimiyatidan noroziligini

kuchaytirdi. Katta hududlarda kuchli g'alayonlar bo'lib turdi. 1873 yil G'ulomxon (asli ismi mulla Ishoq hasan o'g'li) boshchiligida boshlangan qo'zg'olon xonlikni yanada zaiflashtirdi. Saroyda nufuzli amaldorlardan Abdurahmon oftobachi va boshqa amaldorlarning xonga qarshi ekanligi bois 1875 yil yozida Xudoyorxon taxtini o'g'li Nasriddinbekka qoldirib, o'zi Toshkentga general-gubernator huzuriga ketishga majbur bo'ladi. Bu erdan general-gubernatorning taklifi (buyrug'i) bilan oq podshoni ko'rib kelish uchun Sankt-Peturburgga yo'l oladi. Lekin Turkiston orqali Orenburgga kelgan Xudoyorxon pora berib Eron hududiga o'tib ketishga muvaffaq bo'ladi. U erdan Avg'oniston orqali Peshovarga, u erdan Bombeyga va so'ngra Jidda shahriga o'tadi. Bu erda biroz yashab Makkaga o'tib xaj qiladi. Keyin Nurmuhammad sharbatdor qistovi bilan yurtiga qaytishni istab, Hindiston va Avg'oniston orqali Amudaryo bo'yidagi Karrux degan qishloqqa keladi. Bu erda Xudoyorxon kasallanib, 1882 yilda vafot etadi.

Qo'qon xonligidagi notinchlik va o'zaro nizolar davom etadi. Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Nasriddinbekka qarshi kurash olib boradilar. Abdurahmon oftobachi o'zbeklarning kuchini ruslarga qarshi qaratish uchun g'azovot e'lon qiladi. Bu chor Rossiya qo'shinlarining 1875 yilda Farg'ona vodiysiga bostirib kirishiga bahona bo'ladi. Po'latxon va Abdurahmon oftobachi qo'shinlari birlashib harakat qila olmadilar va mag'lubiyatga uchradilar. 1875 yil 22 sentyabrda Marg'ilonda fon Kaufman va Nasriddinxon o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra xonlikning Sirdaryoning o'ng sohilidagi barcha erlari Turkiston general-gubernatorligi ixtiyoriga o'tadi va Qo'qonliklar katta tovon to'lash majburiyatini oldilar. Bu xonga qarshi kuchlarning g'azabiga va birlashuviga sabab bo'ldi. Nasriddinxon taxtni tashlab qochib ketadi. Po'latxon yagona xon deb e'lon qilinadi. Farg'onada rus qo'shinlariga qarshi yana kurash boshlandi. Lekin kuchlar teng emas edi. YAxshi qurollangan, zamonaviy taktikaga ega bo'lgan ruslar Qo'qon xonligini bosib olishga kirishdilar. 1876 yil fevralda Qo'qon xonligi tugatilib, uning barcha hududi Turkiston general-gubernatorligiga qo'shib olindi. Po'latxon tutib olinib 1876 yil mart oyida qatl qilindi.

Qo‘qon xonligining ma‘muriy tuzilishi shundan iboratki, Farg‘ona vodiysi Qo‘qon xonligining asosiy hududi hisoblanib, XIX asrning boshlariga kelib Toshkent viloyati, hozirgi Shimoliy Tojikiston (Xo‘jand va O‘ratepa, tog‘lik tumanlar) Janubiy Qozog‘iston va Qirg‘iziston Respublikalari hududlari ham uning tarkibiga kiritildi. Shu tariqa Qo‘qon xonligi sharqqa Sharqiy Turkistondan g‘arbda Sirdaryoning quyi sohillarigacha, Shimolda Turkistonning Bekpakdala saxrosidan janubda Buxoroga tobe Darvoz, Qorategin, Kulob beklklarigcha bo‘lgan katta xududni egallab O‘rta Osiyodagi yirik davlatga aylandi. Xonlik ma‘muriy jihatdan beklklarga bo‘linib ularning ba‘zilari bir necha marta xonlik tarkibidan chiqib turgan. Qo‘qon davlatining asosiy beklklari sifatida Namangan, Marg‘ilon, Andijon, To‘raqo‘rg‘on, O‘sh, O‘ratepa, Xo‘jand, Toshkent, Turkiston, Chimkentni ko‘rsatish mumkin. Bekliklar xon tomonidan tayinlanadigan hokim-qushbegi tomonidan boshqarilardi. Bekliklar o‘z navbatida boshqa kichik ma‘muriy birliklarga bo‘lingan²³.

Ijtimoiy tizimda esa Qo‘qon xonligidagi ijtimoiy tabaqalar, ularning jamiyat hayotidagi mavqei qo‘shni Buxoro xonligidan aytarli farq qilmaydi. Davlatda xon va uning yaqinlari, markaziy va mahalliy boshqaruvni amalga oshirgan. Mahalliy manbalarda vazir ul-vuzaro, amir ul-umaro deb nomlangan ijtimoiy tabaqaning, harbiy-ma‘muriy amaldorlarning mavqei juda yuqori edi. Bu amaldorlar o‘z xizmatlari evaziga muayyan maosh olishdan tashqari er-mulklarga ham ega bo‘lganlar. Butun o‘rta asr musulmon davlatlarida bo‘lganidek, musulmon ruxoniylari ham alohida imtiyozlarga ega bo‘lgan ijtimoiy tabaqa hisoblanardi. Davlat boshqaruvida, ta‘lim-tarbiyada, sud ishlarida va jamiyat hayotining turli sohalarida ularning fikri katta ahamiyat kasb etgan. Jamiyatning eng ko‘p sonli va eng kam huquqli tabaqasi oddiy xalq-fuqaro edi. Mamlakatning barcha moddiy boyliklari ularning mehnati hisobiga yaratilsada, bu ijtimoiy tabaqa doimo muhtojlikda xayot kechirganligi manbalarda qayd etilgan.

²³ Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Т., «Шарк» 2001 йил. Б.112.

Qo‘qon xonligida harbiy soha. Xonlik xayotida o‘zaro nizolar, saroy fitnalari, qo‘shni hududlarga hujumlar, xon va amaldorlar zulmiga qarshi ko‘tirlgan ko‘plab qo‘zg‘olonlar odatiy xol edi. Bu o‘z navbatida harbiy-ma‘muriy amaldorlar va umuman qo‘shinning jamiyat xayotidagi o‘rnini oshirib turardi. Xonlikda eng yuqori harbiy amaldor-amiri lashkar lavozimi bo‘lib, ko‘p hollarda bu lavozimga qipchoq urug‘idan bo‘lgan kishilar tayinlangan. Qo‘shinning asosini ham qipchoqlar tashkil etardi. Bu ko‘p hollarda mamlakt siyosiy hayotida qipchoqlarning ta’siri oshishiga ham olib kelar, saroydagi ko‘pgina yuqori lavozimlar qipchoqlar tomonidan egallab olgandi.

Qo‘shinlar o‘sha davr xarbiy qonun-qoidalariga mos ravishda 10 minglik, minglik, yuzliklarga bo‘lingan. Harbiy ma‘muriy amaldorlar ichida yirik shaharlar va bekliklar xokimlari-qushbegilar ham oliy harbiy amaldorlar qatoriga kirib, ularning har biri o‘z qo‘shiniga ega bo‘lgan²⁴. Harbiy harakatlar paytida ko‘plab aholi qo‘shin tarkibiga kiritilishi og‘ir harbiy majburiyatlardan biri edi.

Harbiy-ma‘muriy amaldorlar uchun saroy xazinasidan belgilangan tartibda yillik maosh va «tanxo», «tarxon», shaklidagi er-mulkklar berilgan. Harbiy yurishlar paytida qo‘lga kiritiladigan o‘ljaning bir qismi ham muayyan tartibda ularga berilgan. Iqtisodiy hayot. Iqtisodda dehqonchilikning salmog‘i juda yuqori edi. Ayniqsa, qadim dehqonchilik an‘analariga ega bo‘lgan Farg‘ona vodiysida bu narsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xonlik hududida suv manbalarining etarli ekanligi dehqonchilikdan yuqori hosil olinishiga asos bo‘lardi. Ekiladigan ekinlar butun O‘rta Osiyo mintaqasiga xos bo‘lib, donli ekinlar etishtirish (g‘allachilik, jo‘xori) polizchilik, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, sholikorlik anchagina yaxshi rivojlangan edi. XIX asrga kelib xonlikda paxta maydonlari ham to‘xtovsiz kengayib bordi. Paxtaning asosiy xaridori Rossiya edi.

Mamlakatning asosiy boyligi bo‘lgan erga egalik qilish qo‘shni musulmon davlatlardagidek bo‘lib, hosildor erlarning katta qismi davlatniki hisoblanardi. Davlatdagi eng katta mulkdor-xon bo‘lib, u katta-katta hosildor erlarga, ulardan

²⁴ Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Т., «Шарк» 2001 йил. Б.113.

olinadigan hosilga, bu erlarda joylashgan yaylovlar, chorva mollari, hunarmandchilik ustaxonalari, savdo do'konlari va boshqalarga egalik qilardi. Harbiy-ma'muriy amaldorlarga berilgan «Tanxo», «Tarxon» shaklidagi er mulklari faqat xizmat davrida berilgan va meros bo'lib avloddan-avlodga o'tmagan²⁵. Diniy mahkamalar va madrasalar harajatlari uchun vaqf erlardan keladigan daromadlar asosiy rol o'ynagan. Bunday er-mulklarga odatda butun-butun qishloqlar, ustaxonalar, do'konlar, tegirmonlar va boshqa ishlab chiqarish korxonalari bo'lgan katta er-mulklari kirgan.

Chorvachilik mamlakat-iqtisodiy xayotida muhim o'rin tutgan soha bo'lib, u ayniqsa, ko'chmanchi qirg'iz qabilalari yashaydigan tog' oldi hududlarida, Toshkent vohasi va Turkistonda yaxshi rivojlangan edi. Chorvachilikning eng rivojlangan sohasi qo'ychilik va yilqichilik hisoblanardi. Bundan tashqari, o'tro; dehqon aholi yashaydigan hududlarda uy chorvachiligi, ayniqsa, yirik shohli uy hayvonlari-qoramol boqish keng tarqalgan bo'lib, ulardan go'sht, sut mahsulotlari olishdan tashqari, dehqonchilikdan foydalanilardi.

Qo'qon shahrida O'rta Osiyo mintaqasiga xos bo'lgan barcha yirik hunarmandchilik turlari: to'qimachilik, kulolchilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik va boshqalar mavjud edi. Iqtisodning bu sohasi, ayniqsa, xonlikning yirik shaharlarda: Toshkent, Andijon, Marg'ilon, O'sh, Xo'jand, Turkistonda yaxshi rivojlangan bo'lib, xonlikdagi ayrim yirik qishloqlarda hunarmandchilikning bir qancha turlarini ishlab chiqarish ham yaxshi yo'lga qo'yilgandi.

Xususan, Qo'qon o'z temirchilari, misgarlari, Chust do'pido'zlari, Rishton kulolchilik mahsulotlari, Shahrihon pichoqlari, Marg'ilon ipak va shoyi buyumlari bilan shuhrat topgan bo'lib, xonlikdagi yuqori sifatli hunarmandchilik buyumlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan. Shu bois hunarmandchilikni qadim an'analarga ega soxa sifatida XVIII-XIX asrda ham o'z ahamiyatini saqlab kelganligi bilan izoxlash mumkin.

²⁵ Ўзбекистон тарихи: Қисқача маълумотнома. Т., «Шарқ» 2000й. Б.171.

Xonlikdagi murakkab siyosiy vaziyat savdo-sotiq, rivojiga karvonlar xavfsizligiga katta xavf tug'dirishiga qaramay, mamlakat iqtisodidagi savdo-sotiqning ahamiyati katta edi. Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Toshkent, Chimkent, O'rtepa va boshqa shaharlar yirik savdo markazlari sifatida nom chiqargan edilar. Shaharlar va qishloqlar o'rtasidagi iqtisodiy-savdo munosabatlar mamlakatda ichki savdoning taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil edi.

Yirik shaharlarda ixtisoslashgan bozorlar, ko'plab karvonsaroylar bo'lib, ularning soni savdo-sotiq, rivojini ko'rsatib turuvchi muhim belgidir. Ichki savdo munosabatlarida mahalliy mahsulotlar asosiy o'rinda turardi. Chetdan keltiriladigan mahsulotlar ichida turli metallar, fabrika mahsulotlari (Rossiyadan), choy (Xitoy va Hindistondan) va qo'shni davlatlardan olib kelinadigan ba'zi hunarmandchilik buyumlarini aytib o'tish mumkin²⁶.

Tashqi bozorga chiqariladigan mahsulotlarning asosini qishloq xo'jalik mahsulotlari (paxta, jun, ip, matolar, quruq mevalar va boshqa mahsulotlar) tashkil etib, ular XIX asrdan boshlab bevosita Rossiyaga chiqarila boshlandi.

Soliqlar xonlikdagi mavjud soliqlar tizimi shariat qonun qoidalarida belgilangan tartiblarga mos kelsada, axolidan ko'plab mayda soliqlar, jarimalar undirib olish keng tarqalgan edi. Asosiy soliq; xiroj bo'lib, u pul va mahsulot tarzida undirib olinardi. Savdogarlar va chorvadorlar zakot solig'ini to'lashar, hunarmandlardan ham turli soliqlar (tamg'a joy solig'i) olinardi. Soliq yig'uvchi amaldor tanobchi (har bir tanob erdan soliq; oluvchi), zakot solig'ini yig'uvchi amaldorlar Zakotchi deb atalar edi. Soliqlar qat'iy belgilangan miqdorda va vaqtida yig'ilishi shart bo'lsada, xon va amaldorlarning ixtiyori bilan bu narsa o'zgarib turgan. Harbiy harakatlar paytida, ayniqsa, soliqlar turi va miqdori oshirilgan.

Soliqlardan tashqari, axoli majburiy ravishda turli ishlarga: kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlariga, turli qurilishlarga jalb qilinardi. Madaniy hayot. xonlikdagi ilm-fan taraqqiyoti, madaniyat rivoji o'z darajasiga ko'ra O'rta Osiyodagi qo'shni davlatlarga yaqin turadi. Asosiy madaniyat o'choqlari

²⁶ Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Т., «Шарк» 2001 йил. Б.114.

xonlikdagi yirik shaharlar bo'lib, oliy ta'lim beruvchi ko'pgina madrasalar shaharlarda joylashgan edi. Boshlang'ich maktablar xonlikning har bir yirik axoli punktida mavjud bo'lib, ularda arab tilida xat savod chiqarilar, o'qish, yozish o'rgatilardi. Boshlang'ich maktablarda ham madrasarlarda ham asosiy e'tibor diniy ta'lim berishga qaratilardi. Qur'on, shariat, fiqx (musulmon qonunchiligi) asoslarini o'qitishi madrasalarning asosiy vazifasi hisoblanib, dunyoviy fanlar, ayniqsa, aniq fanlar taraqqiyotida bir qadar turg'unlik ko'zga tashlanadi.

Dunyoviy fanlardan adabiyot, tarix nutq, mantiq, aljabr va xandasa (geometriya) kabi fanlar o'qitilardi Poytaxt shahar Qo'qonda XIX asrda 15 ta Madrasa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, boshqa shaharlarda ham bir nechta yirik madrasalar faoliyat ko'rsatgan. Lekin xonlikda Buxoro madrasalarini tugatib kelgan kishilarning mavqei ancha baland hisoblanardi..

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon shahri ya'ni xonlik XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyoda siyosiy jihatdan etakchi o'rinda turmasada mintaqadagi yirik davlatlardan biri sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jihatdan ko'pgina uziga xosliklarga ega bo'lgan. O'zbek davlatchiligi tarixida Qo'qon shahri ya'ni xonlik muhim o'rin tutadi.

3-Bob. Qo'qon xonligi davrida shaharda madaniy hayot, ilm-fan taraqqiyoti.

O'zbek milliy madaniyati markazlaridan Qo'qon shahrida XVIII-XIX asrning birinchi yarmida ilm-ma'rifat olamida nomi dunyoga mashhur bo'lgan ulug' mutafakkir va shoirlar yetishib chiqadi. Xususan XIX asrda Qo'qon xoni Umarxon (1810-1822) va uning umr yo'ldoshi shoira Nodiraning sa'y-harakati tufayli Qo'qon shahri ilm-ma'rifat markaziga aylandi, bu yerda Qo'qon adabiy muhiti paydo bo'ldi.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asr boshlarida yashab ijod etgan iste'dodli va isyonkor shoir Boborahim Mashrab (1640-1711)dir. U Namanganda tug'ilgan. Yetti yoshidan mashhur shayx Mullo Bozor Oxund qo'lida ta'lim olib xat-savodini chiqargan. 15 yoshlaridan Qashqarda mashhur shayx Ofoqhoja qo'lida yetti yil tasavvuf ilmini egallaydi. So'ng kanizaklardan birini sevib qolgani uchun Ofoqhoja dargohidan quviladi. Yorkentga, u yerdan Ho'tanga, so'ng G'uljaga borgan. Mashrab G'uljadan Qashqarga qaytadi. So'ng Ofoqhoja topshirig'i bilan Toshkentga va yana Ofoqhoja huzuriga, undan keyin o'z ona yurti Namanganga keladi. Xullas 18 yil davomida yuqorida nomlari tilga olingan yurtlarni kezgan Boborahim Mashrab Yaman, Hindiston, Dakan (shahar), Isfaxon, Hirot, Mashxad, Makka, Madina, Halab, Sheroz, Shom, Rum, so'ng Buxoro, Toshkent, Shohimardon, Afg'onistondagi Shibirg'on, Andho'y kabi joylarda ham bo'ladi. Buni O'zbekiston FA sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 9968-raqamli qo'lyozma asoslab beradi. Unda Mashrabning "Kimyo" asaridan 16 kimyo (bob) va "Mabdan nur" kitobidan ikkinchi daftari, so'ng shoirning 71 g'azali, 7 muhammasi va bitta musaddasi berilgan.

Shoir Mashrab ijodini o'rganishda yuqorida qayd etilgan 9968-raqamli qo'lyozmadan tashqari sharqshunoslik institutida saqlanayotgan boshqa bir qator manba'lar, jumladan "Tazkirai fahmiy", "Muntahab at-tavorix" (Muhammad

Xakimxon to`ra asari) va Mashrab zamondoshi, u bilan birga bo`lgan Ishoq Bog`istoniyning “Tazkirai qalandoron”<sup>27</sup> asari g`oyatda qimmatlidir.

Mashrab she`rlarida o`zi yashagan davr hukmronlarining mehnatkash xalqqa qarshi qaratilgan siyosatini, boylar, amaldor to`ralar va shalasavod mullalarning riyokorliklari, munofiqliklari, o`zboshimchaliklari, xullas o`rta asrchilik zulmining barcha illatlari fosh etiladi. Xalqning og`ir qismatli ahvoliga achinadi. Shoir “Devon”iga kirgan quyidagi satrlar bunga yorqin misoldir.

Dili tig`i sitamdin, pora bo`lg`on xalqni ko`rdim,
Tani dardu alamdan yora bo`lg`on xalqni ko`rdim,
Ko`zi vaqti sahal sayyora bo`lg`on xalqni ko`rdim,
Muhabbat dashtida ovora bo`lg`on xalqni ko`rdim,
Junun tug`yon etibdur har birisi bexabar tanho.

Yoki:

Qaddi mexnat tog`idin ham bo`lgan ey bechoralar,
Bag`ri vaxshat tig`idin yuz pora ham yuz yoralar
Ko`rmagan umri ishinda bir dami bir yaxshi kun,
Tiyra g`amdin dilda dog`, ham ko`zlari giryonalar.

Ishoq Bog`istoniyning “Tazkirai qalandaron” asarida berilgan shoir Mashrabning zamondoshi So`fi Olloyor bilan bo`lib o`tgan qisqa suhbat g`oyatda diqqatga loyiqdir.

Salom-alik adosidin so`ng So`fi Olloyor shoh Mashrabg`a yuzlanib demishlarki: “Yo Mashrabi devona, shoirlik shuxratingiz olamni tutibdur. Sizni birla muloqot orzusida erdim, ersa Tangri taolo bu orzumni yetkardi. Hush kelibsiz, safo kelibsiz!” Andin so`ng shoh va eshoni So`fi oralarinda ajib suhbat bo`lib o`tmish. Gap orasida shoh Mashrab deydilarki: “Yo So`fim, Siz butun umringiz mobaniyda pulisirotg`a huchomad qilmishsiz. Huzuriy degoni esa do`zahga huchomad etmish. Do`zax va pulisirot dahshatlaridin, do`zax azoblaridin avom xalq ruhini larzag`a solmishsizlar. Yo so`fim, insof birla tafakkur qilinsa,

²⁷ R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov.,O` Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil.

do`zax va pulsirot shu yorug` dunyoning o`zida mavjud ermasmu? Farzandi odam umrining ibtidosidin to intixosig`a qadar bosib o`tmish yo`lning o`zi-qil ustida turmoqlik; gardun va zolimlar aning boshiga yog`dirmish azobu uqubatlar, sonsiz falokatlar do`zax azobidan kammu? Yo So`fim, oyoqlaringiz ostig`a bir nazar tashlang` pulsirot va do`zah anda mavjuddir”.

Eshoni So`fi va ahli do`zah ulamo shoh Mashrab javoblaridin tag`yir tortib, istig`for kelturmishlar. Eshoni So`fi shoh Mashrabg`a yuzlanib deydilarki: “Yo Mashrabi majzub, gunohga botmang. Ollo Taolo Behisht va do`zahni Solih va kofir bandalari uchun yaratmish. G`ofil bandalarni bu haqiqatidan ogoh qilmoq siz va biz uchun ham farz, ham qarzdur”. Anda shoh Mashrab deydilarki: “Yo So`fim, agar haqiqat qiling`usi bo`lsa, do`zah aro barcha gunohkorlar to`lub-toshub, anda oyoq bosarg`a joy qolmas, azob maloikalari ersa o`z yumuchlarining uddasidin chiqaolmag`aylar. Behisht ersa bo`sh qolur. Keling` to tanda jon mavjud erkan, shu yorug` dunyo tashvishlari borasinda jismijo` qilmog`imiz ma`qulroqdur,,,”

Boborahim Mashrab 1711 yilda dinga shak keltirganlikda ayblanib, Balx hokimi Mahmudxon tomonidan osib o`ldirilgan²⁸.

Shoir Mahmud (XVIII asr oxiri-1844).U o`z davrining yirik satirik shoiri edi. Ziyoli oilasidan bo`lgan Mahmurning otasi Mulla Shyermuhammad madrasada mudarrislik qilgan, Akmal taxallusi bilan she`rlar yozib, ijodiy ish bilan ham shug`ullangan. Mahmurning asli ismi Maxmuddir. Mahmud shoirlik tahallusidir. U otasi dars beradigan Mir madrasasida tahsil ko`rdi. O`z zamonasining yetuk namoyondasi bo`lib yetishdi. Mahmud otasi Akmalni o`rab olgan muhit ta`sirida juda yoshlikdan badiiy ijodga berildi. Undagi qobiliyatni sezgan saroy ahllari Mahmurni saroy shoiriga aylantirishga harakat qiladilar. Mahmud saroyda askar bo`lib xizmat qilish bilan birga ijodiy faoliyatni ham davom ettiradi. Saroy shoirlari uni masharalab, ustidan kular edilar.

Shoir Mahmud amaldorlar va saroy hoirlari bilan kelisholmasdan saroyni tark etadi. U umrining oxiriga qadar qashshoqlik va muhtojlikda Hapalak qishlog`ida yashadi, ijod etdi va shu yerda 1844 yilda hor-zorlikda vafot etadi.

²⁸ R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov.,O` Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil.

Mahmur yuqorida ta'kidlaganimiz singari satirik hajviy she'rlar ijod etgan. Ayniqsa "Hapalak" she'ri shoir ijodining yuksak pog'onasi bo'lib, unga katta obro' va e'tibor keltiradi. Bu she'rda shoir Qo'qon xoni Umarxonga murojaat qilib xalqning og'ir iqtisodiy turmush sharoitini yengillatish, ularni ezib qo'ygan soliq va har hil to'lovlardan ozod qilishni iltimos qiladi. "Hapalak" o'zida bir qishloq manzarasini aks ettirsada, haqiqatda butun Qo'qon xonligidagi aksariyat xalqning og'ir iqtisodiy turmush sharoitini, kambag'al dehqonlar xonadonining vayrona bo'lish manzarasini badiy bo'yoqlarda ifodalagan.

Mahmur "Hapalak"dan tashqari yana juda ko'plab hajviy she'rlar ijod qilgan: "Itboqar Qozi", "Xoji Niyozi", "Karimqul Mehar", "Amakim" ("Abdulkarim Fazliy Namangoniy to'g'risida hajv"), "Xakim Turobiy" va boshqalar shular jumlasidandir. "Amakim" she'rida shoir hushomadgo'y saroy shoiri Maddox Fazliyni fosh etsa, "Qozi Muhammad Rajab to'g'risida hajv"da "adolat posbonlari" bo'lgan qozilarning tovlamachiligi, yulg'ishligi, ikki yuzlamaligi va ayyorligini oshib tashlaydi, tanqid qiladi. Shoir qozi Muhammad Rajabning boshiga o'ralgan katta beo'hshov sallasini masharalab kulib:

Buzib jumla darvozani sallasi,
Eshiklarni vayron qilur kallasi.

Mahmur amaldor to'ralar va zodagonlarning noinsoniy, jirkanch qiyofalarini va ularning yaramas kirdikorlarini ochishda badiiy usullardan, xalq hajviyasi va badiiy til vositalaridan foydalanadi. Jumladan, "Xakim Turobiy"da nodon, bilimsiz va ta'magir tabiblarni fosh etar ekan, badiiy bo'yoqlar vositasi bilan Xakim Turobiyning razil aft-angorini qish fasli chillasiga o'hshatib:

"Erur rangi qish chillasidan sovuq"
deydi.

Xullas, Shoir Mahmud satira janrlaridan ustalik bilan foydalanish asosida o'zi yashagan davrdagi hayot nuqsonlarini, kamchilik va adolatsizliklarni keskin tanqid qiladi va keyingi avlod yozuvchi-shoirilari ijodiga barakali ta'sir ko'rsatadi.

Gulhaniy. Asli ismi Muhammad Sharif bo'lgan Gulhaniy XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan atoqli va xalqchil yozuvchidir. U

tahminan 1770 yillarda Darvozda (hozirgi Tojikistonning Tavildara va Qal'ai hum tumanlari) kambag'al oilada tavallud topgan. Gulhaniy boshlang'ish ta'limini qishloqda oladi. Unda she'riy ijodga havas juda erta uyg'onadi. U ko'plab yozma badiiy asarlarni mutolaa qiladi, xalq og'zaki ijodini o'rganadi. Gulhaniy og'ir iqtisodiy qiyinchilik sharoitida yashaydi. Muxtojlik uni Farg'ona vodiysiga olib keladi. Namanganda mardikorchilik qiladi va shu yo'l bilan o'qishni davom ettiradi. Bu yerdan xonlikning Markazi Qo'qonga o'tadi va shu joyda qo'nim topadi. Moddiy qiyinchilik shoirni Qo'qonda ham tark etmaydi. U hatto hammomda o't yoquvchi-go'lax bo'lib ishlaydi. «Gulhaniy» taxallusini shoir ushbu kasbi tufayli tanlagan bo'lsa ham ajab ermas. Biroq «Majmuai shuaro» tazkirasida yozilishisha shoir otash qalb, yuragida o'ti bor bo'lgani uchun «Gulhaniy» taxallusini qo'llagan. Gulhaniy Qo'qon xoni Olimxon saroyida bo'lsada, og'ir iqtisodiy sharoitda edi. Umarxon hukmronligi davrida ham shoirning hayotida o'zgarish bo'lmaydi. Shu tariqa u XIX asrning birinchi yarmida qashshoqlik va muxtojlikda bu bevafo dunyoni tark etadi.

Katta qalb va qobiliyat egasi bo'lgan Gulhaniydan ajoyib meros qoldi. U o'zbek va tojik tilida ijod etgan. Tojikcha yozgan she'rlarida «Jur'at» taxallusini qo'llagan. Katta qalb va qobiliyat egasi bo'lgan Gulhaniydan ajoyib meros qoldi.

Gulhaniy o'z asarlarida zamona illatlarini, hukmron doiralarning xalqqa o'tkazgan zulmi va og'ir turmush sharoitini badiiy mahorat bilan oshib beradi. Buni shoir o'zining turmush qiyinchiliklari va azoblari timsolida ko'rsatadi. U «Bidx» («Bergil») deb nomlangan tojik tilidagi she'rida o'zining navkar sifatida xizmat qilgan vaqtda kamsitilgan va xo'rlanganini quyidagicha ifodalaydi:

«Hazratim, ochlikdan o'ldim, yegani non ber menga», deb boshlaydi va «Navkaring ochlikdan o'lsa, nega xayfing kelmagay?!» deb Xonga murojaat qiladi.

Gulhaniy saroy muhitidan norozilik kayfiyatini va bu muhit shoirga begona ekanligini mohirona tarannum etadi:

Hunar har chand metarovoad az har angushtam,
Ey baxti noraso kore sadorad bar zor angushtam.

Ma'nosi:

Har bir barmog`im uchidan hunar jilolanib tursa ham,
Lekin men shunday baxtsizmanki, barmoqlarim zar (oltin)
dan juda uzoq turadi.

Gulhaniyga katta hurmat va obro` keltirgan asar so`zsiz “Zarbulmasal”dir. Xalq og`zaki ijodi durdonolarini chuqur o`rganish va mutolaa qilish asosida yuksak mahorat va badiiy uslubda yozilgan ushbu asardagi har bir masal o`zi mustaqil bir asardir, desak mubolag`a bo`lmaydi. “Zarbumasal”dagi “Maymun bilan Najjor”, “Tuya bilan Bo`taloq”, “Toshbaqa bilan chayon” masallarida “qissadan hissa” deganlaridek axloqiy-ta`limiy fikr va ma`nolar ibratomuz tarzda yoritilgan²⁹. Yozuvchi asardagi Yapaloqqush, Boyo`g`li, Ko`rqush, Hudhud, Kulonkir sulton, Sho`ranul, Malik Shohin va Kordonlarning bir-birlari bilan quda-anda bo`lish jarayonida aytgan gap-so`zlari, masal-maqollari va hikoyalari orqali hayotiy muammo va jumboqlarni yechib beradi hamda, o`zi yashagan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzum manzarasini yorqin badiiy ifoda etadi.

Xullas, Gulhaniy xalqchil, demokratik masalchi yozuvchi sifatida mehnatkash xalqning qalbidan chuqur joy olgan siymodir.

Jahon otin Uvaysiy (1778-1845). XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmidagi Qo`qon madaniy va adabiy muhitni Jahon otin Uvaysiy va Moxlar oyim-Nodiralar ijodisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Jahon otin Marg`ilon shahrining Childuxtaron mahallasida tavallud topgan. Uning oilasi o`z davrning ilg`or va ma`rifatli oilalaridan bo`lgan. Otasi o`zbek va tojik tillarida she`rlar ijod qilgan. Onasi Chinnibibi maktabdor edi. Akasi Oxunjon Xofiz ham o`z davrining taniqli madaniyat va san`at hodimlaridan hisoblangan. Jahon otin Uvaysiy oilada tahsil olib savod chiqargan. Uning umr yo`ldoshi Marg`ilonlik kosib Xojixon juda erta olamdan o`tadi. Beva qolgan Uvaysiy qizi Quyosh va o`g`li Muhammadxonlarning o`zi tarbiyalab voyaga yetkazadi.

Oiladagi muhit tarbiyasi ta`sirida she`riyatga havas Uvaysiyda juda yoshlikdan shakllanadi. U keyichalik Alishyer Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy, Xofiz, Jomiy ijodlari bilan yaqindan tanishadi va ularni qunt bilan o`rganadi.

²⁹ R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov.,O` Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil.

Umarxon Marg'ilonga hokim bo'lgan (1806-1807yillar) kezlarda Uvaysiy el o'rtasida nomdor shoira sifatida tanilgan edi. Undagi nodir qobiliyati Nodirani o'ziga rom etadi. Uvaysiy Marg'ilonga yaxshi tanigan va bilgan Nodira Umarxon Qo'qonda xon bo'lgach maxsus yorliq bilan uni xonlikning poytaxtiga olib keltiradi. Uvaysiy Umarxon saroyida juda ko'plab yosh ijodkorlarga ustozlik va murabbiylik qiladi. Jahon otin Uvaysiy bilan Nodira o'rtasida mustahkam ijodiy hamkorlik qaror topadi. Mirza Karim o'zining "Mohlaroyim" romanida bu do'stona hamkorlikni quyidagicha ifodalaydi: "Jahon otin beklik dargohiga keldi-yu, Mohlaroyim bilan biri ko'z bilan qosh bo'lib qoldi"³⁰.

Uvaysiy barakali ijod sohibasidir. Ma'lumotlarga qaraganda undan to'rtta lirik devon meros bo'lib qolgan. Shuningdek shoira uchta doston ham bitgan. Biroq bu ijod durdonalari bizgacha to'liq yetib kelmagan yoki haligacha topilgan emas. O'zbekiston FANing Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida №1837 raqami bilan Uvaysiyning mukammal qo'lyozma devoni saqlanadi. Shoiraning "Karbonoma" yoki "Shohzoda Hasan", "Shohzoda Husayin haqida doston" va to'la bo'lmagan "Voqeoti Muhammad Alixon" kabi dostonlari ham ana shu devonga qo'shib ko'chirilgan. Devon tarkibida 269 g'azal, 29 muhammas, 55 musaddas va bir murabba jamlangan. Shoiraning hamma asarlari o'zbek tilida yozilgan bo'lib, unda Navoiyning 9 g'azaliga, Fuzuliyning 3 g'azaliga, Amiriyning 5 g'azaliga muhammaslar mavjud.

Uvaysiy ijodi xalqparvarligi bilan ajralib turadi. U xalqqa yaqin turgan ijodkor sifatida umrining oxirigacha yashaydi. Shu bois Uvaysiy asarlarida el-yurt dardi, qismati va hasratlari bosh mavzu bo'ladi. Buni quyidagi satrlarda ham yaqqol ko'ramiz:

Dunyoni bukun davrila davroni ganimat,
Kelturdi haloyiqmiki mehmoni g'animat.
To bulbuli mastona suhanrezini bul dam,
Anvoyi jahon bog'u gulistoni g'animat.
Umringni bahorida muhabbatni sug'orgil,

³⁰ R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov., O' Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil.

Kuz mardumining giryai boroni g'animat.
Ochg'il ko'zing` e dil, ko'raqol vaqti tamosho,
Ayyomi jahonning mohi toboni g'animat.

Zinnat shoir (a), davlat arbobi, dodhoh. V.P.Nalivkin va M.S.Nalivkinlar «Ocherki bo'ta jenshin osedlogo tuzemnogo naselyeniya Fergani» nomli kitobida «Qo`qonda ikkita shoira yashagan, birining tahallusi Zinnat, ikkinchi esa Mahzuna tahallusli. Ishontirishib aytishmoqdalarki, ulardan biri ochiq yuz bilan erkaklarcha kiyinib xon saroyiga kelar ekan va uning dodhoh unvoni ham bo`lgan. Ikkalasing ham g`azallari Umarxonniki singari «Majmuat ush-shuaro» nomli she`rlar to`plamiga kiritilgan»³¹ deb yozganlar.

Qo`qon xonligi tarixida hozircha ma`lum bo`lgan ayol dodhohlardan faqat Qurbonjon dodhohni (1811-1907) bilamiz. Ammo Umarxon davrida tuzilgan «Majmuat ush-shuaro» nomli to`plamga uning g`azali kiritilganligini e`tiborga olsak u mahalda Qurbonjon yosh qizcha bo`lgan edi. Zinnat kim bo`lishidan qat`iy nazar, uning yozgan she`r va g`azallari mazmundor va yetuk bo`lgan. Ushbu satrlar mualliflaridan birining shaxsiy kutubxonasida bir qo`lyozma bayoz kitob bor. Unga Zinnatning «Baxru odobki,,» so`zlari bilan boshlangan she`ri kiritilgan. Bunda u insonni ulug`laydi, odob haqida falsafiy fikr yuritadi, hayotda mavjud bo`lgan qarama-qarshiliklar haqida gapirib, ularning biror kun bartaraf bo`lishiga umid qiladi, xalqni esa quyoshga o`hshatadi.

Albatta, bitta she`r bilan bir shoiraga to`la baho berish qiyin. Biz adabiyotshunoslarimiz kelajakda Zinnatning kimligini, uning yangi asarlarini topib, unga munosib baho beradilar deb umid qilamiz.

Mohzoda Begim (XIX asr)-o`zbek shoirasi. Uning yashagan davri va tarjimai holiga oid ma`lumotlar kam saqlangan. Mohzoda Begimning «Jahona hitob» deb ataluvchi she`ri qo`qonlik ma`rifatparvar shoir Ibrohim Davron (1874-1922) bostirib chiqargan «Ash`ori nisvon» («Ayollarning she`rlari», O`zR FA Sharqshunoslik instituti, inv №16704) kitobiga kiritilgan. Shoira bu she`rida o`z

³¹ Nalivkinlar. O'sha asar.A.Madaminovning tadqiqoti bo'yicha mazkur tazkirada "Zinnat"tahallusli erkak haqida 16 misradan iborat masnaviy, shoiming bitta tojikcha, shoiming bitta o'zbekcha qasidasi va bitta o'zbekcha g'azali berilgan.

davridagi xotin-qizlarning ayanchli qismati, ularning xuquqsizligi va mudhish hayotini tasvirlab, o'zi yashayotgan tuzumning adolatsizligidan shikoyat qiladi.

Mahzuna. Mehribon mulla Boshmon qizi (XIX asr)-o'zbek shoirasi. Uning hayoti va faoliyati haqida to'la ma'lumot yo'q. Fazliyning "Majmuat ush-shuaro" asarida Mahzuna haqida bunday deyilgan: "U aqlu idrokda Zebunisodek yagona bo'lib, Qo'qonning mashhur shoiralaridandur. Bir oy yuzlining tahallusi Mahzuna bo'lib,,Men notovon turli o'y-fikrlar bilan unga qanday g'azallar yubormayin-ul pari chehra menga har baytinga gavhardek pok javoblar qaytarar edi". Mahzunaning devoni haqida ayrim ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, hali bu devon topilmagan. Uning Fazliy bilan mushoirasi shoira qobiliyatini namoyish etib turadi, mazmunan dunyoviy g'azallarga hamohang, Erlar bilan ayollar o'rtasidagi har qanday munosabatlar ta'qiqlangan bir davrda shoiraning Fazliy bilan mushoira qilganligi uning ijodiy jasoratidir.

Mahzunaning ayrim g'azallari qo'lyozma bayozlarda uchraydi.

Mushtariy. Saodat (1810, vafoti noma'lum)-o'zbek shoirasi, Xudoyorxon saroyida kotiblik munshiylik qilgan. She'rlarida kishilarni yaxshilik kamtarlik poklik va adolatga chaqiradi. Johil va tuban kishilardan nafratlanadi. Uning ijodida dostonchilik va qissanavislik yetakchi o'rinda turadi. Shoiraning xalq og'zaki dostoni og'zaki adabiyotdagi "Orzigul" dostoniga mazmunan yaqin. O'zRFA Sharqshunoslik instituti fondida (inv № 9922) Mushtariyning "Jamilai Dilorom" dostoni va xalq qo'chiqlari usulida yozilgan g'azallari mavjud.

Nodira. Mohlaroyim (1792, Andijon-1842,-Qo'qon)-o'zbek shoirasi, ma'rifatparvari, "Komila" va "Mahzuna" tahalluslari bilan ham she'rlar yozgan. Otasi Andijon hokimi Rahmonqulbiy ming qabilasidan, Qo'qon xoni Olimxonning tog'asi.

Olimxon ukasi Umarxonga Marg'ilon hokimligini beradi va 1808 yilda Nodiraga uylantiradi. Nodira shu xonadonda she'r yozishni mashq qiladi. Shoira Uvaysiy bilan tanishib, uni yosh bolalar va kanizaklarni o'qitish uchun muallima sifatida saroyga taklif qiladi.

1892 yilda Umarxon vafot etib, uning 14 yoshli o'g'li Muhammad Alixon (Ma'dalixon) taxtga o'tiradi. Nodira bor imkoniyatdan foydalangan holda madaniyat va san'atni rivojlantirishga intiladi. Uning zamondoshi, saroy shoiri Xojar shunday deydi: "Umarxon vafotidan so'ng bu iffat sadafining injusi Farg'ona, Toshkent, Ho'jand, Andijon va boshqa Shaharlarda fozillar, olimlar, hattotlar, naqqoshlarni o'z xizmatiga chaqirtirib keldi".

Nodira bir necha kitoblarni ko'chirtiradi va shoirlarni yangi yangi devonlar, asarlar, dostonlar yozishga tashviq qiladi. Devonlarning chiroyli yozilishi, muqovasining bezatilishini shoiraning shaxsan o'zi ko'zdan kechirib turadi. U yaxshi kotiblarga tilla qalam, kumush qalamdon berib, ularni "Zarrin qalam"lik mansabiga ko'taradi.

Nodira bozor va rastalar, masjid va madrasalar, karvonsaroylar qurilishiga e'tibor beradi. Katta go'ristondagi "Madrasai Chalpak", Taqachilik rastasidagi "Mohlaroyim madrasasi", "Dahmai shohon"ni ham Nodira qurdirgan.

Amir Nasrullo 1842 yilda Qo'qonga bostirib kirib, uni talon-taroj qiladi. Sulton Mahmudxonni, uning akasi sobiq xon Muhammad Alini, Nodirani va bir necha zodagonlarni fojiali ravishda o'ldiradi.

Nodiraning adabiy merosi g'oyaviy-badiiy ahamiyati nuqtai nazaridan mumtoz she'riyatining go'zal namunalaridandir.

Nodira she'riyatining asosini lirika tashkil etadi. U muhabbat, sadoqat va vafo kuychisidir. Shoira go'zallik va sadoqatni, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, oxu-fig'onlarini kuylaydi.

Nodira mumtoz poeziyaning mavjud barcha janrlarida qalam tebratadi. Uning o'zbekcha va tojikcha g'azallari 5, 7, 9, 13, hatto 18 baytli hajm va aruzning turli vaznlarida yaratilgan. Shoira g'azallarining asosiy qismi 7-9 baytlidir. U mumtoz adabiyot an'alarini samimiyat va ihlos bilan davom ettiradi. Navoiy, Fuzuliy, Bedil g'azallariga muhammaslar bog'laydi. O'z g'azallarida ko'proq "muqarrar" (so'zning takrorlanib kelishi) va "qo'sh muqarrar" usullarini qo'llaydi.

Shoiraning asarlarida talmeh, majoz, tashbeh, istiora, tazod, tashhis, intiq kabi badiiy vositalar mahorat bilan qo'llanilgan. Uning lirik g'azallari chuqur

mazmundorligi, insoniylik mavzulari bilan o'sha zamondagi ilg'or g'oyalarni tarannum etadi.

Nodira tojik tilida ham go'zal, ta'sirchan she'rlar yozadi. Ular ham mazmun, ham badiiy mahorat jihatdan o'zbek tilidagi g'azallaridek yuksak darajada yozilgan bo'lib, shoira ijodini yana ham keng va to'laroq o'rganishda muhim rol o'ynaydi³².

Xonlikning so'nggi hukmdorlaridan bo'lgan Xudoyorxon hukmronlik davri ham asosan ichki va tashqi urushlar bilan o'tgan bo'lsada madaniyat taraqqiyoti to'xtab qolmadi.

Xudoyorxon hukmronlik davrida ham an'anaviy tarzda xonlikda ko'plab maktabxona va madrasalar faoliyat yuritgan. Ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr 70 – yillarida, ya'ni Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligini bosib olishi arafasida poytaht Qo'qonning o'zida 39 ta madrasa bolgan.

Qo'qon shahrida xonlikning boshqa shaharlarga nisbatan maktab va madrasalar soni ko'p edi. Xususan, A.L.Kun ham xonlik shaharlari bo'yicha (1875 – 1876) quyidagi ma'lumotlarni keltirgan³³:

№	Shaharlar nomi	Machitlar soni	Maktablar soni	Madrasalar soni
1.	Qo'qon	300	120	40
2.	Marg'ilon	300	80	10
3.	Andijon	200	60	6
4.	Namangan	250	100	5
5.	O'zgan	70	20	4
6.	Baliqchi	50	10	3

Xudoyorxon hukmronligi davrida qurilgan madrasalarning aksariyati poytaht Qo'qonda edi. Muhammad Aziz Marg'iloniyning yozishicha, Xudoyorxon Qo'qonda bir madrasa qurdirgan va uni onasi (Hokim Oyim) nomi bilan atagan. Xudoyorxon onasining vasiyatiga ko'ra "Madrasai Hokim oyim"ni Jome' masjidining Sharqiy tomoniga qurdirdi. Qurilishni Mullo To'ra o'g'li boshqardi.

³²R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov., O' Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil.

³³ Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Т.: Шарқ, 1996. – Б. 147.

Qurilish 1869-70-yilda tugadi. Madrasa barpo etishga sarf-xarajat nisbatan kam bo'lgani sababli u anchagina sifatsiz qurilgan edi. Natijada, ma'lum vaqt o'tgach uning devorlari yorila boshlagan. Xudoyorxonning ukasi Marg'ilon hokimi Sulton Murodbek ushbu madrasani qayta qurdirgan va unga vaqflar ajratgan. Xudoyorxon ham hokim Oyim madrasasi to'laqonli faoliyat yuritishi uchun markaziy bozordagi 214 ta do'kon va bitta hammomni vaqf sifatida ajratishga buyruq bergan³⁴.

Xudoyorxon davrida xonlikning boshqa shaharlarida ham madrasalar qurilgan. Xususan, xonlikning yirik shaharlaridan yana biri Namangan markaziy bozorida joylashgan Mavlavi nom bilan ataluvchi madrasa aynan Xudoyorxon hukmronligi davrida, ya'ni XIX asr 60 – yillarida qurilgan va ancha mashhur bo'lgan.

Shuningdek, Xudoyorxon 1874-yilda Marg'ilon, O'sh, Mingtepa hududlaridagi kanal, ariq, Bog'dod qishlog'idagi yer va bog'lar bilan birgalikda, Marg'ilon shahri bozori markazida joylashgan ikkita karvonsaroyni hujra va do'konlari bilan birga 1872-yil qurilgan Sulton Murodbek madrasasiga vaqf etgan.

XIX asr 50 – yillarida Qo'qon xonligining yirik shaharlaridan yana biri O'shda yirik katta yer egasi Alimbek katta madrasa qurdirgan va vaqf sifatida 71 ta savdo do'koni, kattagina yer va tegirmonni bergan. Madrasa ulardan yiliga 319 rub. vaqf puli olib turgan³⁵.

Shuningdek, xonlikning muhim markazlaridan biri Chimkentda Xudoyorxon tomonidan tayinlangan Toshkent hokimi Mirzo Ahmad (1854 – 1858, 1864 avgust-dekabr') madrasa qurdirgan.

Qo'qon xonligi davrida shaharda qurilgan me'morchilik obidalari bilan ham mashhur. Xonlikda me'morchilik obidalarining asosiy qismi poytaxt Qo'qonda qurilgan va ba'zilar bizgacha yetib kelgan. Xonlik shaharlaridagi me'morchilik yodgorliklarining aksariyati madrasalar va maqbaralar edi.

Qo'qondagi yodgorlik binolari umumiy tuzilishi va rivojlantirilishi jihatidan an'anaviy bo'lib, o'z arxitekturasida ba'zi yangiliklarni aks etdirgan. Binolarning

³⁴ Мадраҳимов З.Ш. Қўқон хонлигида вақф ишлари тарихидан // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2009. – №1. – Б. 55 – 58.

³⁵ Мадраҳимов З.Ш. Қўқон хонлигида вақф ишлари тарихидан.... – Б. 55 – 58.

bezaklarida rang-barang g'ishtlar ko'p ishlatilgan, shiplarga solingan gullarning bo'yog'i, ganchlardan yasalgan naqshlarning go'zalligi, nafisligi va xilma-xil rangdorligi bilan O'rta Osiyodagi binolardan farq qiladi. O'zining jim-jimadorligi, yorqinligi, bo'yoqlarning ko'zni qamashtirishi bilan farq qiladi³⁶. Bunga poytaxtdagi Jome' madrasasi, O'rda binosi (xon saroyi) va boshqalar misol bo'la oladi.

Xususan, xon O'rdasi a'lohida ahamiyatga ega. U XIX asrning ikkinchi yarmida Xudoyorxon tomonidan qurilgan noyob arxitektura yodgorligidir. Me'moriy inshoot qurilishi sun'iy balandlikda olib borilgan. 4 gektarga ega bo'lgan to'g'ri to'rtburchakli maydon ko'p hovlilik bo'lib bir kompozitsiyani tashkil qiladi. Saroy qurilishi 1863-yildan 1870-yilgacha davom etgan bo'lib, old tomonining koshinlar bilan bezatilishi esa 1873-yilda tugagan. Saroy qurilishida Farg'ona vodiysidan bir necha ming odam qatnashgan. Barcha qurilish ishlari qo'lda bajarilgan. Qurilishni Qo'qon xonligining turli shaharlaridan keltirilgan 80 nafar usta boshqargan. Rejalovchi va saroyning bosh me'mori Mir Ubaydulla edi³⁷. Ustalardan Mulla Suyarqul, Solixo'ja va buxorolik usta Fozilxo'jalar qatnashgan koshinlarini rishtonlik kulol usta Abdulla mahorat bilann bajargan. Xudoyorxon o'rdasi to'g'ri to'rtburchak shakilli bo'lib, sun'iy tepalikka baland g'ishtin poydevorli qilib qurilgan: xon qarorgohi, o'rda ahli yashaydigan hamda turli maqsadlarda foydalaniladigan 100 ga yaqin katta-kichik xonalar, ichki-tashqi hovlilardan iborat bo'lgan. Birinchi hovlida ayvon, ko'rinishxona, xazinaxona, alohida saxdli masjid, markazda xon qarorgohi (shohnishin), salomxona, xo'jalik binolari, ikkinchi hovlini uning sahni bilann bog'langan haram va xos xonalar egallagan. Haramxonalar bezaklari odmi bo'lib, asosan, quyma ganch ishlatilgan, haramxonalariga ayvonchaga o'xshash o'tish joylari (yo'laklar) orqali kirilgan³⁸. Xudoyorxon o'rdasining asosiy Sharqiy tomonini tashkil etuvchi peshtoq-gumbazli darvozaxona hamda uning ikki qanotida joylashgan xonalargina saqlangan, qolgan

³⁶ R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov., O' Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil. – B. 182.

³⁷ Бобобеков Х. Н. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 216.

³⁸ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 9 — жилд... — Б. 513.

qismi buzilib ketgan. Bosh tarzi bir qavatli qilib bunyod etilgan, pishiq g'ishtdan ganch suvoqda terilgan devorlarga bir g'isht chuqurligida ravoqlar ishlangan. Peshtoq o'rda devoridan birmuncha bo'rttirib oldinga chiqarib qurilgan, baland va hashamatli, peshtoqning ikki yoni va tarzlarining ikki burchaklarida gumbazli mezanalar bilan yakunlangan guldastalar bor. Peshtoqqa uzunligi 40 m bo'lgan qiya yo'lka (pandus) orqali o'tiladi³⁹. Xudoyorxon o'rdasi bosh tarzi ravoqdagi, peshtoq va guldastalaridagi handasiy naqshlar koshinlar, sirkori parchinlardan mahorat bilan yaratilgan. Peshtoq orqali to'rtburchak targli darvozaxonaga o'tiladi, darvozaxona gumbazi o'zaro kesishgan ravoqli asos ustiga qo'yilgan. Gumbaz usti, o'z navbatida, qubbali mezana bilan yakunlangan, undagi panjarali darchalar orqali ichkariga yorug'lik tushadi. O'rdaning bosh tarzi, xonalar koshinlar, o'yma ganchkori naqshlar bilan bezatilgan, shiftlari hovuzakli bo'lib, ularga gullar solingan, xonalarning tepa qismi sharafalar bilan hoshiyalangan, ayrim xonalarning poliga parket terilgan, ayvonlar sahniga marmar yotqizilgan, devorlariga ravoqlar ishlanib, naqshlar biln ziynatlangan. XIX asrga xos bo'lgan Samarqand, Buxoro va Xivadagi mumtoz me'morchilikda qo'llanilgan ko'k rangdan tashqari Qo'qondagi o'rdada sariq, qizil va zangori ranglar ham ishlatilgan. Shuning uchun sharqqa qaratilgan Xudoyorxon O'rdasi quyosh nurlari ostida ayniqsa chiroyli ko'rinadi, yaltiroq koshinlari yanada porlab o'ynab turadi. Me'moriy inshootning 113 ta xonasidan bizgacha faqat 19 xonasi saqlanib yetib keldi⁴⁰. Qo'qondagi o'rdani ko'plab sayyoh va olimlar ko'rib hayratlarini yozib qoldirganlar. Masalan, rus sayyohi A.P.Fedchenko 1871-yili Ko'qon shahriga kelib o'rdaga kirgan. U bu haqida shunday deb yozadi: "Ulkan soydan o'tib biz qal'a oldidagi katta maydonga kirib qoldik. Bu yerdan, bundan ham yaxshiroq go'zal saroy ko'rki ochiladi. Saroy binosi balandlikda qurilganligi tufayli qal'a devori orqasidan ham ko'rinaveradi".

Jome' machiti – me'moriy yodgorlik bo'lib, ham machit, ham madrasa sifatida qurilgan bo'lib, unda 100 ga yaqin hujralar mavjud bo'lgan. Qo'lyozma va arxiv manbalariga qaraganda machitning qurilishshsh Olimxon (1801 – 1810)

³⁹ Азимов И. Фарғона водийсининг архитектура ёдгорликлари. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 25.

⁴⁰ Бобобеков Х. Н. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 218.

boshlab qo'ygan edi. Uning farmoni bilan joy belgilanib g'ishtlari ham olib kelingan. Ammo Olimxon o'ldirilgandan keyin g'ishtlar eski o'rdaning ta'mirlanishiga ishlatib yuboriladi. Umarxonning buyrug'iga binoan 1817/18-yilda yana o'sha joyga Maschiti Jome'ni qurishadi. Jome' machitining oldida 1852-yili g'ishtdan minora qurilgan. 1857-yili Xudoyorxonning farmoniga binoan machit ta'mirlangan. Jome' machiti va madrasasi mustamlaka davrida buzila boshladi, bezaklarning rangi o'chdi. Qo'qon aholisining talabiga muvofiq, Jome' machiti 1982-yili yana qaytadan ta'mirlandi⁴¹.

Xudoyorxon hukmronligi davrida turli me'moriy yodgorliklari faqatgina poytaht Qo'qon shahridagina emas, balki Namangan, Andijon, Marg'ilon, O'sh, Xo'jand, O'ratepa, Toshkent kabi boshqa shaharlarda ham bunyod etilgan.

Qo'qon xonligining boshqa shaharlarida ham me'moriy yodgorliklar qurilgan. Xususan, Namangan markaziy bozorida joylashgan Mavlavi karvonsaroyi shu nom bilan ataluvchi madrasa va masjid (har uchchalasi ham XIX asr 60-yillarida qurilgan)⁴², XIX asr 50 – yillarida O'shda yirik katta yer egasi Alimbek o'z nomidan qurdirgan katta madrasa⁴³ shular jumlasidandir. Bu inshootlarning aksariyati bizga qadar yetib kelmagan bo'lsa-da, ma'lumotlarga qaraganda Qo'qon xonligi me'morchiligining yaqqol namunasi bo'lgan.

Xalqning badiiy ijodi faqat adabiyotda emas, balkim jozibador qo'shiqlarda va musiqada ham kuylanib kelingan. Dutor, tanbur, nay, g'ijjak, chirmanda, nog'ora, surnay, karnay, chang kabi xalq cholg'u asboblariidan foydalanilgan. Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, XIX asr 70 – yillarida qo'g'irchoq teatrlari ya'ni qo'g'irchoq o'ynatuvchilar (chodir xayol deb nomlangan) ham bo'lgan.

O'z davrining san'atkorlari ijodlarini ko'proq shahar maydonlarida tamoshabinlarga namoyish etganlar. Masxarabozlik san'atini ham ko'rsatganlar. Ular o'z o'yinlarida ko'proq o'sha davrning yaramas illatlarini fosh etganlar.

⁴¹ Алихожиев М. Қўқон маданияти тарихидан // “Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси”. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2004. – Б. 144.

⁴² Мадрохимов З.Ш. Қўқон хонлигида вақф ишлари тарихидан. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2009. – №1. – Б. 56 – 58.

⁴³ R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov., O' Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil.

Qiziqchilar va askiyachilar sudxo'r boylarni va din neshvolari kirdikorlarini hajv etganlar. Xalq san'atida akrobatika nayrangbozlik, darbozlik o'yinlari muhim o'rin tutgan. Butun bir masxarabozlar oilasi bo'lgan.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, Qo'qon xonligi hukmronligi davrida shaharda ichki va tashqi urushlar kuchaygan davr sifatida belgilansada madaniy hayot bir maromda bo'ymasada taraqqiy etdi. Bu davrda poytaht Qo'qon va xonlikning boshqa yirik shaharlarida ko'plab me'moriy yodgorliklari barpo etildi. Xususan, poytahtda Xudoyorxon O'rdasi, Hokim Oyim madrasasi, Andijonda Sulton Murodbek madrasasi, Namangan Mavlavi madrasasi va boshqalar shular jumlasidandir. Ularning ichida XIX asr ikkinchi yarmi noyob arxitektura yodgorligi hisoblangan yuzdan ortiq xonadan iborat Xudoyorxon saroyi alohida o'rin tutadi. U o'zining koshinlari, naqshlari rang-barangligi, yorqin jilosi bilan ajralib turadi. Bu davrida ham ko'plab tarixchlilar yashab, ijod qildilar. Ularning asarlari Ozbekiston tarixi to'g'risida muhim manbalardan xisblanadi. Shuningdek, bu davrda ko'plab shoirlar ijod qilgani ham ahamiyatlidir. Shavqiy Namongoniy, Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy, Furqat va boshqalar shular jumlasidandir. Bu davrda xalq ijodiyoti, amaliy san'at, musiqa, tasviriy sana't kabi sohalar rivoj topib xozirda ham bular o'zini ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Bu davrda Qo'qon xonligini qo'shni mamlakatlar bilan ijod ahlini o'zaro hamkorlikda madaniy va adabiy aloqalar olib bordi.

Qo'qon xonligi davrida poytaxt Qo'qon shaxri Farg'ona vodiysi shaharlari iqtisodiy markazgina bo'lib qolmasdan, ilm-fan, madaniyat markazlari ham edi. Qo'qon shaxri tashqari xonlikning Namangan, Marg'ilon, Andijon kabi shaharlarida ilm-fan taraqqiy etgan. Bu ushbu shaharlarda yetishib chiqqan ilm-fan vakillari va qurilgan me'moriy yodgorliklarda nomoyon bo'ladi. Bu davrda ham xonlik poytaxti Qo'qon shahrida qo'shni xonliklardan ham ilm-fan vakillari kelib ijod qilganlar.

Xulosa

Bugun asrlar davomida orzu qilingan istiqlolga erishib, milliy davlatchiligimizni tiklamoqdamiz va mustaqil davlat qurmoqdamiz. Davlatimizning qanchalik tez ulg'ayishi, kuch-quvvat ato etishi, dunyo hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi, avvalombor, xalqimiz ma'naviy saviyasi, g'ururi va faxri nechog'lik yuksak bo'lishiga bog'liqdir. Ana shuni inobatga olgan holda yangi jamiyat barpo etishda eng asosiy yo'nalishlardan biri sifatida xalqimiz tarixini, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash vazifasi qo'yildi.

Istiqlol tufayli ushbu bitiruv malakaviy ishida yoritilgan Farg'ona vodiysining, jumladan o'rta asrlar davrida Qo'qon shahrining toponomik tarixi va madaniyati ham mustaqil vatanimiz tarixining ajralmas bir bo'lagi hisoblanadi.

Qo'qon xonligi shaharlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki xonlikdagi shaharda ichki va tashqi urushlar kuchaygan davr sifatida belgilansada madaniy hayot bir maromda bo'lmasada taraqqiy etdi. Bu davrda poytaht Qo'qon va xonlikning boshqa yirik shaharlarida ko'plab me'moriy yodgorliklari barpo etildi. Xususan, poytahtda Xudoyorxon O'rdasi, Hokim Oyim madrasasi, Andijonda Sulton Murodbek madrasasi, Namangan Mavlavi madrasasi va boshqalar shular jumlasidandir. Ularning ichida XIX asr ikkinchi yarmi noyob arxitektura yodgorligi hisoblangan yuzdan ortiq xonadan iborat Xudoyorxon saroyi alohida o'rin tutadi. U o'zining koshinlari, naqshlari rang-barangligi, yorqin jilosi bilan ajralib turadi. Bu davrda ham ko'plab tarixchlilar yashab, ijod qildilar. Ularning asarlari Ozbekiston tarixi to'g'risida muhim manbalardan xisoblanadi. Shuningdek, bu davrda ko'plab shoirlar ijod qilgani ham ahamiyatlidir. Nodira, Uvaysiy, Shavqiy Namongoniy, Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy, Furqat va boshqalar shular jumlasidandir. Bu davrda xalq ijodiyoti, amaliy san'at, musiqa, tasviriy sana't kabi sohalar rivoj topib xozirda ham bular o'zini ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Bu davrda Qo'qon xonligini qo'shni mamlakatlar bilan ijod ahlini o'zaro hamkorlikda madaniy va adabiy aloqalar olib bordi.

Xullas, oʻrta asrlar davrida, butun Vatanimiz tarixida boʻlgani kabi Fargʻona vodiysi shaxarlarida ham shaharsozlik madaniyati, meʼmorchilik sanʼati rivojlana boshladi. Shaharda xonliklar davrida koʻplab meʼmoriy obidalar qurildi. Ilm-fan va madaniyatni rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Vatanimiz xalqlari tarixining muhim qismi boʻlgan Qoʻqon shahrining oʻrta asrlar davridagi tarixi va madaniyatini yangidan, xolisona yoritib berish-ana shu muhim vazifalardan biri xisoblanadi.

Foydalangan manba va adabiyotlar.

1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т., «Ўзбекистон», 1996.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., «Ўзбекистон», 1997.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., «Ўзбекистон», 1997.
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., «Шарқ», 1998.
5. Каримов И.А. Ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. “Туркистон” газетаси мухбирининг саволларига жавоблар. Т., Ўзбекистон. 1999. Б.4.
6. Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008,
7. Каримов И. А. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақиллика эришиш остонасида.- Т.: Ўзбекистон, 2011.
8. Каримов И. А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. .- Т.: Ўзбекистон, 2015.
9. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016.
10. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
11. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. -Т.:Ўзбекистон, 2017.
12. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
13. Ахмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. Т,1995
14. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент: Шарқ, 2001.

15. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. – Тошкент: Академия, 2009.
16. Агзамова Г. А. Ўрта Осиё хонликларидаги савдо ва унга хос анъаналар // “Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Т., 2004. – Б. 81 – 87.
17. Акрамов В. А. Қўқон шаҳрининг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти. – Т.: Фан, 1973. –142 б.
18. Бабабеков Х. История Коканда. – Т.:Фан, 2006. – 244 с.
19. Бобобеков Ҳ. Н. Қўқон тарихи. – Т.: Фан, 1996. – 238 б.
20. Воҳидов Ш. Х. XIX – XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши. – Т.: Фан, 1998. – 240 б.
21. Зиёев Ҳ. З. Туркистонда Россия тажовузи ва унга қарши кураш. – Т.: Шарқ, 1998. – 480 б.
22. Зиёев Ҳ. З. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси. – Т., Гофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 288 б.
23. Ртвеладзе .В.; Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. – Т. 2001
24. Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. Современные мифы о далёком прошлом народов Центральной Азии. – Ташкент, 2006
25. Усмонов Қ., Жўраев У., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи (XVI-XIX асрнинг биринчи ярми) Тошкент:Ўқитувчи, 2016,-Б.8.
26. Исҳоқхон Иброт. Фарғона тарихи / Нашрга тайёрловчилар Ҳ. Бобобеков, М. Ҳасаний – Т.: Камалак, 1991. – Б. 266 – 327.
27. Мадрахимов З. Қўқон хонлигида савдо солиқлари тарихидан// Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2008. –№1. – Б. 49 – 51.
28. Мадрахимов З. Наманганиннг Қўқон хонлиги савдо алоқаларида тутган ўрни // Мозийдан Садо. –Тошкент, 2008.– №2. – Б. 28–30.
29. Мадрахимов З.Ш. Қўқон хонлиги тангалари // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2010. – №2. – Б. 131-133.

30. Мадрахимов З.Ш. Қўкон хонлигида вақф ишлари тарихидан. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2009. – №1. – Б. 54 – 58.
31. Сабуров Н. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Т., 2005
32. Сагдуллаев А., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат ва бошқарув тарихи. – Т., 2006
33. Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Убайдуллаев Ў. Ватан тарихи (Иккинчи китоб) Тошкент: Шарқ, 2003
34. R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., O' Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2010
35. R.T. Shamsutdinov., Sh Karimov., S.Xoshimov.,O' Ubaydullaev. Vatan tarixi. Ikkinchi kitob. Sharq. 2016 yil.
36. Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи (қадимги даврлардан XIII аср бошларигача). Тошкент, “Тафаккур”. 2009
37. Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент, “Тафаккур”. 2012
38. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Tom .1,4,6,8,9. Toshkent: Fan, 2004
39. O'zbekiston tarixi:o`quv qo`llanma / Shamsutdonov R., Mominov X.; ma`sul muharrir S. Inoyatov. – Т.: “Sharq”, 2013